

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrası**

**RAJABOVA DILBAR
TO‘RABOYEVNA**

**USMON AZIMNING POETIK
DUNYOSI**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat ta’lim
yo‘nalishi**

Ilmiy rahbar: prof. Umurov H.

SAMARQAND - 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI
KAFEDRASI**

RAJABOVA DILBAR TO‘RABOYEVNA

**USMON AZIMNING POETIK
DUNYOSI**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta’lim yo‘nalishi**

**Ilmiy rahbar
prof. H. Umurov**

SAMARQAND - 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

**HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI
KAFEDRASI**

RAJABOVA DILBAR TO‘RABOYEVNA

**USMON AZIMNING POETIK
DUNYOSI**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi**

Ilmiy rahbar:	prof. Umurov H.
Rasmiy taqrizchi:	f.f.n. Suvonova J.

Malakaviy bitiruv ishi hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrasining 2015-yil 22-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (11-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:	dots. Nosirov A.
------------------------	-------------------------

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2015-yil ____ iyundagi yig‘ilishida himoya qilingan va ____ foiz bilan baholangan. (____ -son bayonnoma)

YaDAK raisi:	prof. Turniyozov N.
A‘zolari:	_____

SAMARQAND - 2015

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrasining 2015-yil 22-maydagi 11-son bayonnomasidan

K O' C H I R M A

22.05.2015.

Samarqand shahri.

Yig'ilish raisi: dots. A. Nosirov

Kotib: o'qt. D. Xursanov

Qatnashdilar: dots. A. Nosirov, prof. H. Umurov, prof. A. Soliyev, prof. Sh. Hasanov, f.f.n. U. Qobilov, f.f.n. M. Boboxonov, o'qituvchi A. Toshpo'latov, o'qituvchi D. Xursanov, o'qituvchi R. Toshniyozova, kabinet mudiri G. Ernazarova va bitiruvchi kurs talabalari.

KUN TARTIBI:

1. 2014-2015-o'quv yilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlarinig muhokamasi va himoyaga tavsiya etish.

Kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri A. Nosirov quyidagilarni qayd etdi: "2014-2015-o'quv yilida kafedra tomonidan o'n yettita bitiruv malakaviy ishi bajarilishi lozim. Bugunga kelib barcha bitiruv malakaviy ishlari to'liq tayyor holatga keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishlarining ilmiy rahbarlari tomonidan mulohaza ham yozilgan. Men barcha bitiruv malakaviy ishlari va ilmiy rahbar mulohazalari bilan tanishib chiqdim. Bajarilishi shart bo'lgan bitiruv malakaviy ishlari ilmiy rahbarlar tomonidan tahlil qilingan va bugungi kun talablariga to'liq javob berishi qayd etilgan, ochiq himoyaga tavsiya qilingan". Bu mulohazalardan so'ng, bitiruv malakaviy ishlarining muhokamasi boshlandi va bitiruvchi talaba D. Rajabovaga so'z berildi:

"Mening "Usmon Azimning poetik dunyosi" mavzusidagi tadqiqot ishim kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari haqida to'liq ma'lumot berilgan. Asosiy boblarda shoir Usmon Azim she'riyatida psixologizm, lirik kechinma ifodasi, xarakter ruhiyati haqida nazariy tushunchalar qayd etilgan. Xulosa qismida har uchala bobdan kelib chiqqan tushunchalar umumlashtirildi, zarur o'rinlarda nazariy manbalarga asoslandik".

D. Rajabovaga mavzu yuzasidan savollar bo'lsa marhamat: A. Toshpo'latov quyidagicha savol berdi: lirik kechinma deganda nimani tushunasiz? Javob: lirik kechinma bu inson tuyg'ulari, o'yi va xayoli, tuyg'ulari ifodasidir. Boshqa savollar bo'lmasa kafedra yig'ilishi kun tartibidagi masala yuzasidan

QAROR QILADI:

1. D. Rajabovanning “Usmon Azimning poetik dunyosi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan tadqiqot deb e’tirof qilinsin va ochiq himoyaga tavsiya etilsin.

2. Bitiruv malakaviy ishiga rasmiy taqrizchi etib f.f.n., J. Suvonova belgilansin.

Yig’ilish raisi:

dots. A. Nosirov

Kotib:

o‘qituvchi D. Xursanov

**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘zbek filologiyasi
fakulteti Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrası bitiruvchi bosqich
talabasi Rajabova Dilbarning “Usmon Azimning poetik dunyosi” mavzusidagi
bitiruv malakaviy ishi haqida**

TAQRIZ

She’riyatdagi nozik mushohadalar, tabiat, borliq va inson tasvirini teran ilg‘ay olish uchun ijodkorning ko‘ngil ko‘zi ravshan bo‘lmog‘i lozim. Ana shunday uyg‘oq ruhiy qarashlarga, qiziqishlarga ega bo‘lgan kuzatuvchan ijodkorgina yurakdan chiqarib she’r yoza oladi. Biroq she’r yozish boshqa, uni tahlil qilish, uni o‘z kuzatishlari orqali teran mushohada qilgan holda mazmun – mohiyatini ochib berish boshqa. Bunda esa ilm va ijodning o‘zaro mutanosibligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu malakaviy bitiruv ishi ham adabiyotshunoslikdagi mazkur masalalarga e’tiborni qaratadi. Tadqiqotchi Rajabova Dilbar mazkur ilmiy ishida ijodkor Usmon Azimning poetikasi, ijodiy mahoratini va yuksak salohiyatini imkon darajasida yoritib berishga harakat qilgan.

Bitiruv malakaviy ishi uch asosiy bob, ikki fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Birinchi bobda lirikadagi psixologizm haqida so‘z boradi va o‘zbek she’riyatiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar tilga olinadi. Qolaversa, she’r yozish jarayonida kechadigan ruhiy holat va ijodkor sezimlari to‘g‘risida fikr – mulohazalar bayon qilingan. Mazkur bobda umumiy mushohadalar bilan birgalikda nazmning alohida xarakterli xususiyati sifatida inson ko‘nglining o‘ziga ham noma’lum bo‘lgan ruhiy inqiloblariga alohida urg‘u berilgan. Ikkinchi faslda esa fikr aynan Usmon Azimning ijodidagi psixologizm ya’ni, ruhiyatiga qaratiladi. Shoirning ko‘pchilikka tanish, qo‘shiq bo‘lib ulgurgan she’rlarini tahlilga tortgan. Bu esa tadqiqotchining jiddiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Chunki shoirning ashula sifatida kuylangan she’rlari ko‘pchilikka tanish. tuyg‘ularni ilg‘ab olish ham oson. Shoir nima demoqchiligini, g‘oyaviy maqsadini mukammal tarzda ochib berganligi sababli ham tadqiqotchi Rajabova Dilbar Usmon Azimning ijodi bo‘yicha qilgan ushbu ilmiy ishida qiyinchilikka

uchramaganligi ko‘rinib turibdi. Bitiruv malakaviy ishining mazmunini yoritishda Rajabova Dilbar shoirning qator she‘riy to‘plamlaridan foydalangan. Asosiy manba sifatida esa “Saylanma”, “Fonus”, va “Yurak” nomli to‘plamlarini olgan.

Keyingi yillarda yaratilgan bu to‘plamlarda ijodkorning yoniq qalb sohibi ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi va shoir bu ijod namunalarida o‘zining yuksak iste’dodini yanada yorqin yuzaga chiqargan. Shuning uchun ham tadqiqotchi tadqiqot obyekti sifatida ularni tanlab adashmagan deyish mumkin. Malakaviy bitiruv ishidagi shu jihatlarni ijobiy ma’noda ta’kidlash bilan birgalikda yana shuni ham aytish mumkinki, tadqiqotchi ushbu ilmiy ishni davom ettiradigan bo‘lsa shoir Usmon Azimning dastlabki yillarda yaratilgan ijod mahsullari bilan bugungi kunda yaratayotgan she‘riy asarlarini o‘zaro taqqoslagan holda yanada chuqurroq yondashib tadqiqot olib borsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining sifatini inobatga olgan holda, shuningdek, ishga tadqiqotchi mustaqil ilmiy hamda ijodiy tomondan yondashganligi uchun uni ijobiy baholash mumkin.

Taqrizchi

J. Suvonova

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I Bob.Shoirshe'riyatidapsixologizm.....	7
I.1. Lirikadapsixologizm.....	7
I.2. UsmonAzimijodidapsixologizm.....	12
II BOB.UsmonAzimshe'rlaridakuztasvirivaxarakterruhiyati.....	23
III BOB.Ruhiyatniyaratishdalirikkechinmaifodasi.....	37
Xulosa.....	61
Foydalanilganadabiyotlarro'yxati.....	64

REJA:

I. Kirish

II. Asosiy qism:

I.Bob. Shoir she'riyatida psixologizm.

I.1. Lirikada psixologizm.

I.2. U.Azim ijodida psixologizm.

II.Bob. Usmon Azim she'rlarida kuz tasviri va xarakter ruhiyati.

III.Bob. Ruhiyatni yaratishda lirik kechinma ifodasi .

III. Xulosa.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Adabiy merosimiz sermazmun va badiiy rang-barangligi bilan asrlar davomida o‘z badiiy qadr - qimmatini saqlab kelmoqda. Shuningdek, mana shu adabiy merosimiz namunalari kecha va bugungi kun nuqtayi-nazaridan mutaxassislar tomonidan imkoniyat darajasida o‘rganilmoqda. Zotan, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘qdir”.¹

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga.kiritgach, har bir sohaga Shu jumladan, adabiyotga ham alohida e‘tibor qaratildi. Shu aytgan fikrlarimizning dalili sifatida yurtboshimiz I.A.Karimovning “Ma‘naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyatini chuqur bilish va tushunib etishga suyanadigan qudratli kuchga aylanadi”, - deya ta’kidlagan fikrlarini aytishimiz mumkin.²

O‘zbek adabiyotida ro‘y berayotgan yangilanishlar tufayli adabiyotshunos olimlar ta’kidlaganidek, vaqt o‘tgan sari uni tushunish murakkablashadi. Shu bois insonni tarbiyalashda endilikda uning ma‘naviy ruhiy olamiga kengroq e‘tibor qaratish va ta’bir joiz bo‘lsa adabiyot orqali insoniyatning o‘z-o‘zini anglashdek murakkab bir jarayonga diqqatni qaratishni ko‘zda tutish lozimligi oydinlashadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham adabiyotshunoslikdagi mazkur masalalarga e‘tiborni qaratadi. Jumladan, Usmon Azim ijodining bir qancha qirralari o‘rganilgan. Shu nuqtayi - nazardan yana bir bora qayta ko‘riladigan bo‘lsa ular orasidagi mutanosiblik va yakdillikka xulosa yasalgan bo‘lar edi. Shu bois shoirning poetik dunyosi ayniqsa ijodkor lirikasining psixologizmini o‘rganish, mazmun - mohiyatini to‘laqonli yoritib berish orqali turlicha fikr, g‘oyalarning mushtaraklik tomonini o‘rganish va xulosa chiqarish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Shuning uchun bo‘lsa kerakki, Usmon Azim she‘riyatida “yurak”, “kuz”, “ruh”, “jism”, “ishq”, “inson”, “ayol”, “tabiat” kabi obrazlar, tabiat tasviri shu kabi poetik tasvirlar muhim rol vazifasini o‘taydi.

¹ Каримов И.Адолатли жамият сари. – Т.: Ўзбекистон.1998. 53-бет.
Каримов И. Истиқлол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон. 1994. 22-бет.

Shu masalalarga e'tibor qaratgan holda ushbu bitiruv malakaviy ishida Usmon Azimning poetik dunyosi va asosiy xususiyatga ega bo'lgan qirralaridan bo'lgan ruhiyat tasviriga e'tibor qaratishni lozim deb topdik.

Psixologizm nafaqat Usmon Azim balki barcha ijodkorlarning ijodida mahorati va badiiy saviyasi jihatidan turlicha ko'rinishda kuzatiladi. Bitiruv malakaviy ishida U.Azim uslubining o'ziga xosliklari va badiiy mahorati qirralarini o'rganish va yoritishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, Usmon Azim she'riyati mazmuni va badiiyati jihatidan o'zbek she'riyatining yorqin namunasidir. Shuningdek, shoir she'rlarining mavzu ko'lamini keng bo'lib, unda ishqiy, ijtimoiy, falsafiy va axloqiy mavzularni yoritishda inson ruhiy olamining ahamiyatli ekaniga guvoh bo'lamiz. Va natijada har bir ijod mahsulining badiiy tafakkurning o'ziga xos uslubida yaratilganligini kuzatamiz.

O'rganilish darajasi: Hozirda ming yillik o'z tarixiga ega adabiy merosimizning noyob durdonalari adabiyotshunos olim va olimalar tomonidan dolzarb masala sifatida o'rganib kelinmoqda.

Adabiyotshunoslardan A. Abdullaev, I.G'ofurov, J.Suvonova, X.Davron, I.Haqqul, A.Abdug'afurov, N.Karimov va Sh.Rizolarning qator ilmiy ishlarida, maqolalarida U.Azimning ijodiga oid adabiy merosimizning qimmatbaho durdonalari tahlil qilib o'rganilgan va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Mana shu adabiyotshunos olimlar tomonidan tahlil etilgan asarlar hozirgi kunda adabiyotshunosligimizda katta yutuqlardandir.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Mustaqillik mafkurasining shakllanishida prezidentimiz I. A. Karimovning mulohazalariga tayangan holda, adabiyotshunos olimlarning estetik qarashlariga, fan va madaniyat arboblarning adabiyot nazariyasi hamda adabiyot muammolari bo'yicha tadqiqotlariga, taniqli adabiyotshunoslarning Usmon Azim ijodi haqidagi turfa xil qarashlari va nazariy mulohazalari metodologik asos vazifasini bajaradi.

O'rganilish manbalari. U.Azim ijodi turkiy she'riyat hamda umumsharq adabiyotining eng ilg'or an'analari o'zida mujassam etgan yangi va yuqori

bosqich hisoblanadi. Uning she'riyatida lirik kechinmada xarakter ifodasi, kuz tasviri va psixologizmni, shuningdek, ijodkorning poetik dunyosini o'rganishda quyidagi manbalardan foydalandik : shoirning "Yurak" she'riy to'plami, "Baxshiyona turkumi", "Fonus" va "Uzun tun" to'plamlari, shuningdek, Ahmad Abdullayevning maqolalari, Jumagul Suvonovning "Usmon Azim ijodida badiiy tafakkur teranligi", X. Davronning "Bo'lar elning shoiri", N.Shukurov "So'z sehri – she'r mehri", I.Haqqul "G'ussali yurak – yolqinli yurak", I.G'ofurov "Ohanrabo qayerda", S.Ashur "O'zgarayotgan badiiy tafakkur" va boshqalar. Bundan tashqari, bitiruv malakaviy ishida yana U.Azimning boshqa she'riy to'plamlaridan va mazmunini yoritishda yuqorida tilga olingan olimlarning shoir she'riyati tadqiqiga oid ilmiy ishlardagi nazariy ma'lumotlar va tadqiqot uslubidan imkon qadar foydalanildi. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda Usmon Azimning asosiy tadqiqot manbai sifatida "Yurak", "Fonus", "Saylanma" to'plamlari olindi. Usmon Azim ijodining tub mohiyati psixologik va falsafiy, majoziylik shuningdek, ijtimoiy, etik-estetik qarashlarning yuksak poetik shaklidagi ifodasi bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek xalqining ma'naviy dunyosini shakllantirishda g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatayotgan shaxs – Usmon Azimdir. Biz mazkur ijodkorning ijodi haqida so'z yuritganda uning ijodiy merosining mazmunan boyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz.

Usmon Azim xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyatining mukammallik kasb etishida o'z davrini tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning g'ururi, shon-u sharafini tarannum etayotgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, u olam va odam, borliq haqidagi o'tkir falsafiy qarashlari bilan odamning tuyg'ulariga ta'sir etish, tarbiyalash bilan birga odamni Hazrati Inson darajasiga ko'tarilishiga o'z hissasini qo'sha olgan mohir ijodkordir.

"Boychibor bo'lmaganida Alpomish bo'lmaganidek, she'riyat bo'lmaganida U.Azim ham bo'lmadi. Bugungi o'zbek she'riyatida "shoir" ko'p, shoirlarning

alplari bor. Lekin she'riyatning 90 alpini bir joyga yig'sang, ularning barchasini faqat "Iste'dodga sadoqat"i va dilining barkamolligi bilan dog'da qoldiradigan, barcha alplarni yenggan Alpomishdek qudratga ega bo'lgan, xalq bahodiriga ildiz bo'lgan, uning mardligini diliga ko'chirgan uyg'oq shoiri – Usmon Azimi bor"³. Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini, U.Azimdek teran ifoda etgan shoir adabiyot bo'stonida kamdan-kam topiladi. Badiiy adabiyotga, she'riyatga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga Usmon Azim she'riyati orqali kirib keladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tadqiqotning ilmiy - amaliy ahamiyati. Usmon Azim ijodi she'riyat olamida o'ziga xosligi va fikrlar ko'lamining zalvorliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. U hayot tomirlaridagi ichki harakatni, davr yuragidagi murakkab ritmni chuqur his eta oladigan, o'zigina his qilib qolmasdan o'quvchiga ham bu tuyg'uni yuqtira oladigan shoir hisoblanadi. Shuningdek, u yaratgan adabiy meros o'zining ko'pqirraliligi, ya'ni turli masalalardan bahs yuritganligi va kishi ruhiyatining eng murakkab qirralarini ham ochib bera olganligi bilan o'zbek she'riyatida alohida o'rin tutadi.

Usmon Azim she'riyatida qo'llangan har bir so'z, tushuncha va badiiy timsollar maxsus o'rganishga arzigulik alohida bir olam deb qaraladi.

Ishning tarkibi va tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusi "Usmon Azimning poetik dunyosi" nomli umumiy mavzuning tarkibiy qismi bo'lib, ruhiyat tasvirining talqiniga bag'ishlanadi. Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 66 bet.

³ Умуров Х. И.Эҳтиёж тафти. – Т.: Ўзбекистон, 2009. 53-бет.

I.BOB. SHOIR SHE'RIYATIDA PSIXOLOGIZM.

1.1 Lirikada psixologizm

Usmon Azim o'zbek lirik poeziyasini faqat mavzu va g'oyaviy mazmun jihatidagina emas, balki badiiy jihatdan ham yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tardi. Shakl va mazmunning uzviy birligi uchun kurashdi va yangi-yangi obraz, xarakterlar, peyzaj va portretlar yaratdi, realistik tasvir tendensiyalarini rivojlantirdi. U.Azim "Insonni tushunish" nomli dastlabki to'plamida zamon, inson va sevgi murakkabliklarini o'ziga xos bo'yoqlar, ohanglarda ifodalashga intiladi. Shoir degan edi :

Qalbingizga daryo bo'lib kiraman bir kun ,

She'r yurtidan sado bo'lib kiraman bir kun .

Ijodkor 70-yillar adabiyotimizga o'zining dadil qadamlari bilan, yoniq qalbi bilan kirib kelgan bo'lsa, u o'zi aytganday qalblarda daryo misol to'lib-toshib oqayotir desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoir ijodida zamon, hayot, haqiqat va adolat qalbi tug'yon urib turadi. Erk va o'zlik uchun kurash – shoir she'rlarining mag'zini tashkil etadi. U.Azim she'riyatiga tanqidchilar, adabiyotshunoslar va boshqa ijodkorlar tomonidan iliq munosabatlar bildirilib kelinmoqda. Jumladan, Mirzo Kenjabek shoirning "Uyg'onish azobi" nomli she'riy to'plamiga o'z fikr – mulohazalarini bildirar ekan quyidagicha fikrlarni ilgari suradi: "Usmon Azim, X. Davron, Sh. Rahmon va boshqa iste'dodlar yurak yalang'ochlab maydonga chiqdilar. Adabiyot dargohiga yo'nalgan har bir o'qimishli yosh shoir ushbu iztirobga duch kelishi muqarrar. Qafasdagi adabiyotning isyonkor kuychilaridan bo'lmish keyingi avlod chin so'zni rasm etdi. Xususan, U. Azim rost tuyg'ular kuychisi, to'g'riso'z shoir sifatida tanildi"⁴. Usmon Azim shiddatli tuyg'ulari bilan, keskin holatlar va aniq tasvirlari bilan o'zbek she'riyatiga yangicha ruh olib kirdi. Shoir shaxsi – vujud, she'ri – ruh bo'lib ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Ruh –

⁴ Азимов У. Уйғониш азоби. Шеърлар ва тарихий драматик қисса. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. 320-б.

haqiqat maydoniga, Haq Arshiga, vujud esa ko‘ngil mayliga berilib, farog‘atga intilayotgandek tuyuladi. U. Azim bir she‘rida :

Bu dunyo – ku manim ko‘nglim yarim etdi,

Yarmi bilan kuylasam ham olam to‘lar ! –

deb yozgan edi. Shoir xalqi muhabbat dardidan, el-yurt armonidan gohida erksizlik va qullikdan ko‘ngli yarim kishilardir. Axir shoir “Shoirilar armondan tug‘iladilar” deb bejiz yozmagan. Usmon Azimning “Jimlik” to‘plamidan joy olgan she‘rlar esa shoirning ilgari yozgan poetik asarlariga xos zich matnli, falsafiy ma‘noli va turli – tuman shaklli qiyofadadir. To‘plamdagi nasr ham turfa xil: hikoya, kinoqissa va dramalar inson ichki dunyosining rang – barang tovlanishlarini ifoda etadi. To‘plamdan joy olgan kinoqissalar ekranlashtirilgan, dramatik asarlar esa sahna yuzini ko‘rgan. Ijodkorning badiiy mahorati haqida gapirarkan Shuhrat shunday deydi: “Usmon Azim keyingi o‘n yil mobaynida she‘riyatimizga kirib kelgan yoshlarning ta‘lantlilaridan biri. U bilimli, xushyor, izlanuvchan. Uning yaxshi shoirona ko‘zi bor, olamni shoirona ko‘z bilan kuzatib, shoirona dard bilan kuyib – yonib yozadi”⁵. Ijodkorning armiyada turib “Potpolkovnik Fateev”, “Askar o‘ldi”, “Komandirman”, “Doktor to‘g‘risini aytdi”, “Leytenant Baratov bilan suhbat” kabi o‘ziga xos, hali tengdoshlari idrok etib olmagan yangi gapni aytdi. Bu gaplar chindan ham she‘riyatimizda yangilik edi. Ana shu she‘rlaridan boshlab uning ijodida o‘sinh boshlandi va ijodkor muntazam ijodiy salohiyatini oshirib bordi. Shoir U. Azim haqida fikr bildirgan har bir adabiyotshunos olim uning kechinmalari ifodasini nechog‘lik baland pardalarda ifoda eta olishi haqida so‘z ochadi.

Biz bunday fikrlarni Jumagul Suvonovanning “Usmon Azim she‘riyatida badiiy tafakkur” nomli kitobida ham uchratamiz. “Insonni tushunish” hayotga endigina kirib kelgan, turmushning har bir jabhasiga katta qiziqish va chanqoqlik bilan boqayotgan yosh shoirning iztiroblari edi. To‘plamda Usmon Azimning o‘z

⁵ Шухрат Ризо. Қийноқ сенга бўлсин шараф// Шарқ юлдузи . - Т.: 2010. 6-сон, 154-162-б.

iztiroblarini to'kish uchun o'ziga xos shakl izlayotganligi sezilib turadi. To'plamdagi she'rlar ba'zan mumtoz adabiyotdagi masnaviylarni, ba'zan Mayakovskiyga xos fikrni erkin bayon etish uslubini, gohida an'anaviy barmoq vaznini yodga soladi. Shoir qaysi shakl va vaznda bitmasin, baribir, unda hayotni obrazli fikrlar bilan idrok etayotgan yosh ijodkorning tuyg'ulari namoyon bo'la boshlagan edi. Shu bilan birga u yaratgan o'nlab to'plamlarga kirgan she'rlar, dostonlar yorqin tuyg'ularga, ifodalarga boyligi, jo'shqin va jozibadorligi, shiddatkor va da'vatkorligi, goh g'amgin, goh beg'ubor erkalovchi ohanglari bilan kitobxon qalbidan chuqur joy oladi. Ijodining ilk davrida radiodramaturgiyada "Baxtli bo'laylik", "Hujjatli film uchun syujet", "Bahodir va malika" pyesalarida o'zini sinab ko'rgan shoir, keyingi yillarda dramalar yozgan.

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul yozganidek : "She'r yozadiganlar ko'p, ammo sevishga qodir, ko'nglini ishq ishg'ol aylagan shoirlar nihoyatda kam. Usmon Azimni Alloh sevgidan qismagan. Shuning uchun uning ko'ngli erkin, ruhi va fikri erkindir. Shuning uchun ham uning eng yaxshi she'rlarida ishq va e'tiqod shu'lasi porlab turadi. Ehtimol, mana shuning uchun ham U. Azimning "Saylanma" sini o'qigan she'rxon tashqi bir dunyoga emas, balki ulkan bioshoirning ko'ngil bog'lariga sayr – u sayohat qilganday bo'ladi"⁶. U. Azim insonning murakkab his tuyg'ularini, ruhiy kechinmalarini mohirlik bilan ifodalab, turli adabiy usullar, badiiy til vositalarini qo'lladi, xalq og'zaki poyeziyasidan foydalandi. Ma'lumki, obraz va timsollar - san'at va adabiyotning o'ziga xos bir kategoriyasi. Ijodkor biror voqelik yoki narsa va hodisani mushohada etib, ularni hissiy- ta'sirchan tarzda ifodalaydi.

Xususan, shoir-ijodkor she'rlarida insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etar ekan, shoir unda asrlar davomida shakllanib kelgan an'anaviy timsollar va badiiy tasvir vositalarini o'z fikr va mushohadalariga, falsafiy dunyoqarashiga tayangan holda yangicha talqin qiladi. Shu bilan birga ijodkorning tafakkur mevasi sifatida yangi timsollar va ifoda vositalari maydonga

⁶ Иброҳим Ҳаққул. Ғуссали юрак – ёлқинли юрак. www.ziyo.uz.

keladi. Yoki an'anaviy obrazlarga shoir qaysidir jihatdan yangicha ma'no yuklaydiki, bu ham shoir mahoratiga xos adabiy – badiiy hodisa hisoblanadi. Biz shoir ijodini tadqiq etar ekanmiz lirikadagi mavjud xarakter xususiyatlar va psixologizm bilan bog'liq nuqtalariga alohida e'tiborni qaratamiz. Sababi she'r bu ruhiyatdir. Bu borada olimlar fikr – mulohazalarini bildirar ekan inson ongi, ruhiy olami va hissiy kechinmalari haqidagi noyob xulosalarini aytib o'tdilar. Jumladan, XIX asrning oxirlariga kelib faylasuflar inson faqatgina ongi vositasida fikr yuritmasligini, balki u ba'zan hissiyotga tayangan holda ham mushohada yuritishini e'tirof eta boshladilar. Zigmund Freyd inson o'z hislari ko'magida fikr yuritsagina olam hodisalarini mohiyatan anglashi mumkin ekanligini tasdiqlaydi. Uning izdoshi Karl Gustav Yung psixologiya ilmiga "Jamoaviy ongsizlik" tushunchasini kiritadi. Yung fikricha, psixika nimaningdir hosilasi emas, u birlamchi va inson borlig'ini aniqlab beruvchi asosiy prinsipdir. Jamoaviy ongsizlik – inson ongining dastlabki holati. Yungning nazariyasiga ko'ra, psixikani anglash butun tirik mavjudotlarning uyg'un jihatlarini his etish bilan amalga oshiriladi. Bunday holat aynan ibtidoiy odamlarda yaqqol kuzatilsada, barcha ijtimoiy davrlardagi inson ruhiyatiga birday dahldordir. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda insonning ichki kechinmalari faqatgina o'z doirasida emas, balki ongsiz tabiat bilan uyg'un holatidagi ichki ruhiyat manzaralari bilan hamohanglikda, mutanosiblikda she'r shakliga solinadi.

Lirikada shaxs kechinmalarini, uning butun bir ma'naviy olamini tasvirlash uchun nihoyatda keng qamrovli fikrlar silsilasi talab etiladi. Ya'ni, she'rda insoniyat yer yuzida paydo bo'lganidan boshlab shoir o'zi yashab turgan davrgacha bo'lgan butun voqeliklarni o'z tasavvuri, dunyoqarashidan kelib chiqqan holda qalamga olishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, ijodkor istasa mifologiyaga, xohlasa xalq og'zaki ijodiga yoki boshqa mavzuga murojaat qilgan holda asar yaratishi mumkin. Ayniqsa xalqning orzu armonlari va istaklariga esh bo'lgan xalq og'zaki ijodi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. "Adabiyotshunoslik lug'atida" shunday yoziladi: "Zero, klassitsizm davri sig'ingan antik etalonlardan,

ma'rifatchilik topingan aql kultidan bezgan romantizm vakillari xalq og'zaki ijodida chinakam ekzotika, bitmas-tuganmas xazinani ko'rdilar. Demak, xalq og'zaki ijodi doimo yozma adabiyot uchun ilhom manbai bo'lib kelgan. Uning zamiridagi chinakam badiiyat, falsafa va umuminsoniy qadriyatlar ifodasi doimo barhayotdir. Shoir Usmon Azim ijodida ham xuddi shunday jihatni ya'ni, mavzuning keng qamrovliligini kuzatamiz. Ijod shunday murakkab jarayonki, uni balki tushga yoki mavhumiyatga qiyoslash mumkin. Chunki ba'zan tushda hayotda umuman, tasavvur ham etib bo'lmaydigan narsalarni ko'ramiz. Hayotda yechimini topolmagan jumboqlar kalitini topib, anglay olmaganlarimizni anglaymiz. O'ngimizda yod olmagan she'rlar, bilmagan tillar tushda reallashishi mumkin. Tushda kechuvchi hodisalar qachonlardir eshitilgan, his qilingan va ko'rilgan narsalarning inson ongi va qalbi tubida yotgan aksi ekanligini psixolog olimlar ko'p ta'kidlashadi. Siz o'ylamagan narsalar ham qachonlardir sizning ruhingizga ta'sir etgan va shu ta'sirlanish saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. Ijodiy jarayon ham aynan shu tushga o'xshab ketadi. Bunda san'atkor olamining tub-tubida yashirinib yotgan, o'zi uchun ham noma'lum sanalgan narsalarni beixtiyor dunyoga keltira boshlaydi. Buning qanday yuzaga kelganini tushuntira olmasa-da, juda yaxshi his eta biladi. Yaratilgan asar ijodkorning o'zi uchun ham yangilik bo'lib, undan avvalo san'atkorning o'zi zavqlanadi.

Biz ilmiy asarlarda intuitsiya terminini ko'p uchratganmiz. Bu inson taffakkuridan tashqarida sodir bo'luvchi idrok, ya'ni ichki bir tuyg'u yordamida sezish, anglash degani. Inson qalbi bilan his qiladi, ammo ba'zan qalbi vositasida mushohada yuritishi ham mumkin. Ongda esa shu olingan hisning o'zigina saqlanib qolaveradi. U olamni anglashga urinarkan, muayyan bir jabhani ko'proq kuzatishga, his eta olishga moyilligi bo'ladi. Ammo biz olamni kuzatish jarayonida tuygan ta'sirning muayyan bir moyillik natijasida yuzaga kelganiga ahamiyat berib o'tirmaymiz. Ayni vaqtda san'atkor ifoda etayotgan hodisalar ham ana shu moyillik bilan uzviy bog'liq. ya'ni ba'zan ijodkor "qon"i hali o'zi bilmagan,

anglab yetmagan, ammo his qilib ulgurgan olam hodisalariga tortib ketishi mumkin.

I.2. U.Azim ijodida psixologizm

Ijodiy jarayon san'atkor tafakkuri bilangina bog'liq hodisa emas. Asardagi ba'zi jihatlar taffakkurdan tashqaridagi va ayni paytda aqlga bo'ysunmas bir ruh bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Chinakam san'atkor olamida ana shu ruh hukm suradi. Biz buni U.Azimning she'r yozish jarayonidagi bildirgan fikr – mulohazalaridan ham bilib olishimiz mumkin. “Mumtoz adiblardan kimdir tushunmagan so‘zini yozgan yozuvchini otish kerakmi-ey, dorga osish lozimmi - ey – ishqilib, shunga yaqin bir fikrni aytgan. Men bu fikrga to‘liq qo‘shilaman. Ammo yozish jarayonida ba‘zan shunday hollar bo‘ladiki, dor tagiga borishingni ham, nima deb izohlashingni ham bilmaysan. Mana, “Tazarru bog‘lari” turkumining muqaddimasidagi birinchi she‘rni yozayapman. Odatdagiday, g‘ira-shira mavzudan nimadir meni yetaklab ketmoqda. Qayerga boraman, navbatdagi satrda qayerga burilaman, yolg‘iz Allohga ayon. Faqat yozyapman...

Yetmoq og‘irlashar – yuraging teran,
Unga cho‘kib ketar zirqirab jisming.
Gaplasha boshlaysan samovat bilan...

Nimani gaplashaman? Nimani? Nogoh satr paydo bo‘la boshlaydi: “Tilimga keladi og‘ir so‘z”. Bu “og‘ir so‘z” nega keldi? Qayerdan keldi? Nima uchun u “og‘ir so‘z”? Hayajonda tipirchilayotgan ruhim har tarafga o‘zini urib, lahzada paydo bo‘layotgan savollarga munosib javob izlaydi...va bir zum o‘tmasdan allaqaydan besharpa uchib kelgan so‘zning shakli miyamga uriladi. Men o‘qib ulguraman: “Bismil”...Men bu so‘zni hech qachon ishlatmaganman va hatto nimani anglatishini ham bilmayman. Ammo uning o‘rni ushbu she‘rning aynan shu joyida ekanligini negadir aniq his qilaman. Endi to‘rtlik quyidagi ko‘rinish oladi:

Yetmoq og‘irlashar – yuraging
teran,
Unga cho‘kib ketar zirqirab
jisming.
Gaplasha boshlaysan samovat

bilan –

Tilingga keladi og‘ir so‘z:

“Bismil...”

Men ichki sezgim(intuitsiya)ga juda ishonaman. U bu to‘rtlikda xato ko‘rmayapti. Demak, hammasi joyida...”. Aytmoqchi bo‘lganimiz asarning shunday bir go‘zalliklari ham borki, bu olam sir-sinoatlarini san‘atkor tafakkuri, ta‘bir joiz bo‘lsa badiiy mahorati bilangina izohlash qiyin. Bu kabi ijodiy jarayonda ijodkor o‘z tuyg‘u kechinmalarini, ilhom qatralarini badiiy obrazga – san‘atkorning hissiy olami bilan yo‘g‘rilgan tashbehlarga o‘rab beradi. Demak, obraz avvalo insonga hissiy (estetik) ta‘sir o‘tkazadi. Badiiy obrazning yaralishi muayyan bir ta‘sirlanishning sababi o‘laroq yuzaga kelib, bu ta‘sirlanish olam bilan munosabatda turgan san‘atkor(inson)ning shu dunyoni kuzatib borishi mobaynida yuzaga keladi. San‘atkor olamning ma‘lum bir jabhasini obrazli ifoda etishga kirisharkan, bu jarayon zahirida metafora (o‘xshatish) yotadi.

Demak, obraz olamga (yoki uning bir bo‘lagi san‘atkorga) xos biror jihatning badiiy shaklidir. Professor Hotam Umurov esa obrazga quyidagicha ta‘rif beradi : Badiiy obraz xususiyatlarini o‘rganishni atamaning mazmunidan boshlagan ma‘qulroq. “Obraz” atamasi “raz” (“chiziq”) so‘zidan olingan bo‘lib, “raz” so‘zidan “razit” (“chizmoq, yo‘nmoq, o‘ymoq”) va undan “obrazit” (“chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq”) so‘zi yasalgan. “Obrazit”dan “obraz” (“umuman olingan tasvir”) vujudga kelgan⁷.

Borliqdan olinayotgan ta‘sir ma‘lum ma‘noda shu olamdan tashqarida turadi. Agar bu ta‘sirlanishning ifoda etilishiga ehtiyoj tug‘ilsa, yaratilgan obraz ana shu ta‘sirlanishni aks ettirishi kerak bo‘ladi. Ammo san‘atkor olam mohiyatida shunday bir hislarni tuyishi mumkinki, buni biz aytayotgan, asosida metaforiklik xususiyati yotuvchi obrazlilik bilan ifodalash juda mushkul. Chunki, san‘atkor olamning tashqi ko‘rinishi bilan o‘z kechinmalari o‘rtasida hech qanday

⁷ Умuroв Х. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарк, 2002. 252-б.

o'xshashlikni topolmay qolishi ham mumkin. Shunda u kechinmalarini o'z tasavvuridagi olam mohiyati ko'rinishlari bilan ifoda etishga urinadi.

San'atda estetik nigoh (эстетическое видение) degan tushuncha mavjud. Shunday odamlar borki, ular oddiy "ko'z" ilg'amagan narsalarni "ko'radi". Bu xususiyat, ko'proq, musavvirlar yoki shu sohani tushunadigan, ranglarni his qila oladigan insonlarda mavjud. Estetik nigohi o'tkir odamlar tabiatdagi ranglar uyg'unligini ham, shakllarning boshqalar ko'zidan pinhon mazmunini ham his qila oladilar. Bunday odamlarda taassurot olish va tasavvur qilish xususiyatlari ham o'zgalarga o'xshamagan tarzda kechadi. Shuningdek, biz istaymizmi, yo'qmi olam haqidagi asosiy informatsiyani ko'z vositasida qabul qilamiz. Shu jumladan, estetik ta'sirlanishimizda ham nigoh eng muhim omil sanaladi. Shoir hu ehtiyoj bilan she'r shakli ustida izlanishlar qiladi. U manzarani xuddi musavvirlarday chizishga, voqelikni kino epizodlariday harakatdagi tasvirda jonlantirishga urinadi. Shoir o'z tasavvuridagi olam tasviriga mos ifoda usulini izlaydi va o'zicha topadi. Tasavvuridagi o'zini cheksiz hayratlantirgan olamni tasvirlashga an'anaviy yo'l ojiz, shu bois o'quvchiga "ko'rsatib" ta'sir o'tkazishga intiladi, uni tasavvuridagi pala-partish, sirli va o'ziga xos dunyoga yo'naltiradi.

Usmon Azim tabiatni rassomlarday o'ziga xos tarzda ko'ra oladi. U xuddi rassom kabi ko'rganini o'zi his qilganiday tasvirlashga qodir ijodkor. XX asr o'zbek adabiyotining g'oyaviy - tematik tadriji masalasini bugungi ijtimoiy va ilmiy tafakkur nuqtayi – nazaridan ko'rib chiqish zarurati tug'iladi. Shuningdek, yangilangan ijtimoiy – tarixiy sharoitda yashayotgan inson qalbini aks ettirish uchun she'riyatni ham shunga muvofiq isloh qilish zarurati yuzaga keldi. Shuning natijasi o'laroq she'riyatimiz ritmik – intonatsion qurilishi, poetik ifoda tarzi, subyektiv tashkillanishi kabi muhim jihatlardan qator sifat o'zgarishlariga uchradi.

Xususan, U.Azimning "Undov so'zlarga bog'da yozilgan sharhlar" nomli she'rida shoir lirik qahramon va tabiat hodisalari o'rtasidagi munosabatni uyg'unlikda tasvirlash hamda tuyg'ular tabiiyligiga erishishda aynan shu intonatsiya va ohangdan mohirlik bilan foydalanadi :

O !..– Daraxt barg ochibdi.
Vuy !. – Bog‘ gulga ko‘milgan.
Uh !.. – Nimalar qilayapti bu Ayamajuz?
Voy–buy !.. – Hosilning ko‘pligini!
Bay–bay !.. – Bog‘ to‘la meva. To‘kilib yotibdi.
Iye !.. – Bir barg sarg‘aydi.
Oh !.. – Xazonrez.
Uf !.. – Buncha g‘amgin bu imillagan yomg‘ir?
Uh !.. – Yaydoq shoxlarni oralab, bir zarra qor uchib o‘tdi...
Demak,
tugadi undov so‘zlar.
Endi bahorgacha
bosiq suhbatdir...

Shoir U.Azimdagi yozish mahoratining tengsizligi uning o‘tkir qalamida, yurak zarblarida va shijoatida she’r bo‘lib yangraydi. Tovushlarni bunday chiroyli tashbehtar bilan tasvirlash U.Azimning o‘ziga xos uslubidir. “O !” , “Vuy !” , “Uh !” , “Uf !” , “Bay-bay !” kabi undov so‘zlarning turli ma’nolarda – hayrat, hayajon, zavqlanishni bildirishi o‘quvchida ham aynan shu tuyg‘ularni uyg‘otadi. Bunda avvalo ohangning ta’siri alohida o‘rin tutadi deyish mumkin. Shoir bahor, yoz, kuz va qish fasllarining almashinishini shunchaki so‘z bilan emas, balki mana shu fasllarda ro‘y beradigan o‘zgarishlar vositasida ifodalaydi.

Bu esa she’rning ta’sirdorligini ta’minlash bilan birgalikda undagi estetik didni, tabiiylikni yaqqol namoyon etadi. Ushbu misralarda lirik qahramonning holati, hissiy kechinmalari faqat o‘zigagina ma’lum, lekin boshqalar uchun noma’lum bo‘lib qolmaydi. Kitobxon lirik qahramon his qilayotgan tuyg‘uni o‘zida tuyadi. Daraxt, bog‘, gul, meva, Ayamajuz kabi obrazlar kishida o‘zgacha taassurot uyg‘otadi. Badiiy obraz – san’atkorning hissiy olami bilan yo‘g‘rilgan tashbeh. Demak, obraz avvalo insonga hissiy (estetik) ta’sir o‘tkazmog‘i shart. Badiiy obrazning yaralishi muayyan bir ta’sirlanishning sababi o‘laroq yuzaga

kelib, bu ta'sirlanish olam bilan munosabatda turgan san'atkor(inson)ning shu dunyoni kuzatib borishi mobaynida yuzaga keladi. San'atkor olamning ma'lum bir jabhasini obrazli ifoda etishga kirisharkan, bu jarayon zamirida metafora (o'xshatish) yotadi.

Demak, obraz olamga (yoki uning bir bo'lagi san'atkorga) xos biror jihatning badiiy shaklidir. Shoir-ijodkor she'rlarida insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etar ekan, shoir unda asrlar davomida shakllanib kelgan an'anaviy timsollar va badiiy tasvir vositalarini o'z fikr va mushohadalariga, falsafiy dunyoqarashiga tayangan holda yangicha talqin qiladi. Adabiyotshunos olim U.To'ychiyev lirik qahramonning muhim belgilaridan biri sifatida "Lirik qahramon subyektivlik ("Men") saltanati shohidir"⁸ - , deya e'tirof etgan edi. Bu "Men" esa nafaqat shoirning botiniga, balki o'quvchining ichki olamiga, ruhiyatiga ham dahldor hisoblanadi. Shuning uchun ham o'qilayotgan she'r bizning o'z tuyg'ularimiz, hissiy kechinmalarimizdek yangraydi. Uni o'zimiznikidek qabul qilamiz. Bu ijodkorning badiiy mahoratidan dalolat beradi. She'riyatdagi bu kabi poetik o'zgarishlar lirikada mohiyat va shaklni chuqur tadqiq etib, ilmiy bahosini berish asosida adabiyotimizning keyingi taraqqiysi uchun zarur nazariy xulosa va umumlashmalar chiqarish mumkin.

Har bir davr boshqa davrlardan o'zining muayyan siyosiy-ijtimoiy-psixologik kayfiyati bilan farq qiladi. She'r, umuman, har qanday san'at asari, ana shu muhit – kayfiyatdan o'sib chiqadi va birinchi galda o'z davrining ijtimoiy – ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Lekin buni badiiy asarni muayyan bir davrga bog'lab qo'yish deb tushunmaslik lozim, chunki badiiy asar o'zining obrazliligi , ma'no xususiyatlarining ko'p qatlamliligi bois boshqa zamonlar iste'moliga ham kirib boraveradi. Usmon Azim she'riyatining mazmun – mundarijasi ham xuddi shu tavsifga mos va xosdir. Ya'ni, shoir ijodidagi o'ziga xoslik uning ijodida xalq dardining qalamga olinishi, umuminsoniy, milliy va umumbashariy qadriyatlarning aks etganligidadir. Biz insonni faqat sotsial yoki biologik mavjudot deb emas,

⁸ Тўйчиев У. Бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т.: «Шарк», 2007. 486-б.

dastlab uning ruhiy asosga ega ekanligini ya'ni, avvalo u Hazrati inson ekanligini inobatga olishimiz zarur.

Zero, Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlari ham insonni tushuntirishda uning ruhiy olamiga alohida urg'u berishgan. Ta'bir joiz bo'lsa, ruhni insonning ildizi o'laroq qabul qilishgan. Markaziy Osiyoda ushbu qarashning shakllanishida Islom dini asosiy rolni o'ynagan. Muqaddas kitobda "Albatta, biz Allohning bandalarimiz va albatta, biz U zotga qaytguvchilarmiz"⁹, - deya buyuriladi. Demak, falsafiy qarashlarimizning keyingi o'n asrlik rivojida Islom ruhi yetakchilik qiladi.

Usmon Azim she'rida ko'rib-kuzatilgan voqelik tasvirini boricha berish bilan birga, undan olingan taassurotlar, his-kechinmalar ifodalanadi. Usmon Azimda tasvir ramzga aylanmay turiboq estetik qimmat kasb etadi, o'quvchida xuddi ko'rib turgandek taassurot uyg'otadi va bu taassurot tasviriy san'at asarini tomosha qilganda tug'iladigan kechinmalardan kam bo'lmaydi. Ijodkorning lirikada bunday tasvir usulidan foydalanishi tasodifiy emas. Bunda, eng avvalo, voqelikni ko'rish orqali estetik idrok etish qobiliyati talab qilinadi. Shoir o'z his-tuyg'ularini ifoda etarkan, bu ifoda ijodkorning estetik qobiliyatlari bilan hamohang tarzda kechadi. Ma'lum bir ijtimoiy - psixologik davrda shakllangan shoir dunyoqarashi nafaqat shu palladagi xalq kayfiyatini, balki, umuman, u yoki bu xalq kayfiyatidagi dominant xususiyatlarni o'zida jamlagan bo'lishi zarur. Bu hol, avvalo, tug'ma ravishda shoir ruhiga ko'chgan, qolaversa, tarbiya uni rivojlantirgan bo'lmog'i zarur. 80 - yillarda Usmon Azim, 90 - yillarda Muhammad Yusuf kabi shoirlar she'riyati, qaysiki, musiqiylikka asoslangan, quyma misralari xalqimizga eng ko'p manzur bo'ldi.

Ohang... Berilibroq tinglansa hamda chuqurroq mushohada etilsa, dunyo boshdan oyoq ohanglarga yo'g'rilgandir. Faqat inson bolasi so'nggi bir asr davomida sivilizatsiyaning shovqini orasidan o'sha tabiiy ohangni topolmay

⁹ Куръони карим. – Т.: «Чўлпон», 1992. 113-бет.

qiynalayotir. To‘g‘rirog‘i, shovqinga ko‘nikib borayotir. Munaqqid Rahimjon Rahmat “Jannat sog‘inchi” deb nomlangan maqolasida ichki, botiniy ohang haqida yozadi: “She‘r ohangidan ma‘no uqa oladigan o‘quvchi ancha kam. Holbuki, she‘r ohangini ilg‘ash orqali uning mazmunini chuqur his etamiz.

Lekin ohang deganda faqat so‘zlar jarangini tushunish ham noto‘g‘ri. So‘zning eng jozibali sifati musiqa ohanglarida ifodalanadi. Musiqaning har bir nozik tebranishi qaysidir alohida so‘zning ma‘nosidir. Ya‘ni musiqada so‘z o‘z ma‘no olamini ohang tarzida namoyon etadi”. Faqat aytilganidek, ohang so‘z qobig‘idagina emas(bu ham bor albatta),balki, avvalo, she‘rni vujudga keltirgan kechinma bag‘rida tebranib yashaydi. She‘rni tushunish, aslida shu ohangni qalb quloqlarimiz bilan tinglashdir.

“She‘r ohangidan ma‘no uqa oladigan o‘quvchi ancha kam. Holbuki, she‘r ohangini ilg‘ash orqali uning mazmunini chuqur his etamiz. Lekin ohang deganda faqat so‘zlar jarangini tushunish ham noto‘g‘ri. So‘zning eng jozibali sifati musiqa ohanglarida ifodalanadi. Musiqaning har bir nozik tebranishi qaysidir alohida so‘zning ma‘nosidir. Ya‘ni musiqada so‘z o‘z ma‘no olamini ohang tarzida namoyon etadi”. She‘rni tushunish, aslida shu ohangni qalb quloqlarimiz bilan tinglashdir. Shoirning tanish ohangga notanish-u, tanilishga yuz bor arzigulik o‘zligini olib kira bilganidadir. Ha, u o‘z ruhini, go‘zal ruhini bizga tanishtirdi. Har qanday she‘riyatning birlamchi unsuri shunday ruhiyatdir aslida. “Siz shakl ortidan emas, balki ruh ortidan quving. Siz ruhni kuting, ruhni toping-da parvarish aylab, «she‘r» deb atalmish qasr tarxini chizishga taklif qiling. So‘ng uni o‘z holiga qo‘ying, toki, ruh «qasr» tarxini o‘ziga ko‘ra «chizsin», o‘z shaklini o‘zi vujudga keltirsin. E’tibor bering, avvaldan qurib qo‘yilgan «qasr» ruhga to‘g‘ri kelmasligi, unga yoqmasligi mumkin”¹⁰. Aslida ko‘pincha shunday bo‘ladi ham. Natijada she‘r shakli, ifoda yo‘sini qanchalik yangicha, modernistik jaranglamasin, uning botini «yarq» etib ko‘zga tashlanmaydi.

¹⁰ U.Hamdam. Yangi o‘zbek she‘riyati. – T.: Sharq, 2014. 63 bet.

Har qanday she'r ruhi, pafosi o'z qiyofasi-yu o'z ohangiga ega bo'ladi. Tug'ilib kelayotgan ruhga o'z shaklini taklif etmas ekanmiz, u bizga o'zligini tanitmaydi. O'rtadagi samimiyatga putur yetadi. Badiiy asarda, xoh u she'r, xoh roman bo'lsin, — samimiyat bo'lmasa, qolgani – badiiy priyomlar-u tashbehlar, kutilmagan topilmalar-u olifta birikmalar barcha-barchasi bekor degan gap. Ijodkor yuqorida ta'kidlaganimiz qalb qulog'i yordamida botinda paydo bo'lgan she'riy ruhning o'z, asl ohangini tinglay bilishi judayam zarur. Hatto shunday desa bo'ladi: she'rning mag'zi, qudrati ayni shu ohangda yashirin. Dard, fikr qanchalar salmoqdor va go'zal bo'lmasin, badiiy asarning umumiy holatiga ziyon yetadi, she'r ta'siriyam susayadi. Shoir va dunyo, shoir va inson, shoir va jamiyat, shoir va Alloh o'rtasida vositachi she'r bo'ldi. U she'r orqali his qildi, she'r orqali fikrladi, she'r orqali yashadi. She'r shoirning yashash, odamlar va dunyo bilan muloqot qilish, tillashish tarziga aylandi. U o'zining xalqchil ruhi bilan yuraklarga yo'l topa olgan. Ya'niki, shoirlar bor, tug'ilishdan, fitratan o'zini xalqqa yaqin oladi. Chunki u shunday yaralgan. Baliq suvdan o'zga yerda yashay olmaganidek, bunday shoirlarning ham qarorgohi xalq ruhiyatidir. Usmon Azim ham xuddi shunday qalbi yoniq ijodkordir. Mazkur shoir haqida J. Suvonova shunday yozadi: "Usmon Azim ko'proq o'ziga asrdosh kishilar ruhiyatini poetiklashtirish yo'lidan boradi".¹¹

Shoirlar bor, tabiatan yolg'izlikka intiladi, kuylaganda ham yakka shaxs dardini kuylaydi. Biroq bu ikki xil shoirlarni bir – biriga qarshi qo'yish, ularning biridan ikkinchisini ustun ekanligini izohlashga, tasdiqlashga urinish, nazarimda, hech qachon muvaffaqiyatga olib kelmaydi. Chunki odamzod turfa tabiatli bo'lib dunyoga keladi. "Bu olamda faqat xalqchil she'r yozgan shoirgina shoirdir", deyish xos she'riyat yaratuvchi shoir tabiatini inkor etishdir.

"Agar sen shoir esang va ruhingda qadim bobolarning navolari chalinib turgan esa, shuni kuyla! Agar turlanib borayotgan davr ruhi ruhingga singishib ketgan bo'lsa, unda izlan, yangi shakllar top"¹². Aynan mana shu fikrlarning

¹¹ Сувонова Ж. Усмон Азим шеъриятида бадий тафаккур теранлиги. – Т.: Mumtoz so'z, 2012. 80 б.

¹² U. Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati. – Т.: Sharq, 2014. 65-bet.

davomi sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy – siyosiy hayotdagi burilish va o'zgarishlar ko'pincha adabiyotimiz mavzularini tayin etdi, bu esa badiiy ijodda shakl va mazmun tushunchalariga nisbatan yanada e'tiborni kuchaytirdi. Shuningdek, ijodkor ijtimoiy dolzarb muammolarni bir chetga yig'ishtirib qo'yib, "ko'z qorachig'ini ichkariga qaratdi" (Ortega – i – Gasset), o'z ko'ngil dunyosi kashfiga berildi. Ushbu fikrlarning isboti esa Usmon Azimning yuqoridagi she'rida yaqqol ko'rinadi. Bizga ma'lumki, inson faqat sotsial mavjudot emas. U yana biologik, ruhiy asoslarga ham ega, o'z hayotida ayni shu jihatlarning ham ifoda etilishiga ehtiyojmanddir. Usmon Azim esa ijodiy uchrashuvlardan birida o'z nutqida "She'r bu ruhiyatdan boshqa narsa emas", - degan edi. Ruh esa inson tanasidadir. Xo'sh, insonga Sharqda qanday qarashadi?

Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, bizda insonni tushuntirishda uning ruhiy tarafiga urg'u berishgan. Ta'bir joiz bo'lsa, ruhni insonning ildizi o'laroq qabul qilishadi. Bu qarashning shakllanishida esa Islom dini asosiy o'rin egallagan. Muqaddas kitobda "Albatta, biz Allohning bandalarimiz va albatta, biz U Zotga qaytguvchilarmiz" deya buyuriladi. Demak, falsafiy qarashlarimizning keyingi o'n asrlik rivojida Islom ruhi yetakchilik qildi. Bu esa Usmon Azim singari ijodkorlarning ijodida o'z ifodasini topganligini ko'ramiz.

Ulug'bek Hamdamning "Yangi o'zbek she'riyati" nomli monografiyasida ham muallif XX asr o'zbek she'riyati badiiy tafakkurining tadrijiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan, o'z ijodida uning turli bosqichlariga xos asosiy tendensiyalarni mujassam etgan shoirlar qatorida Usmon Azimni ham sanab o'tadi. Har bir davr boshqa davrlardan o'zining muayyan siyosiy – ijtimoiy – psixologik kayfiyati bilan farq qiladi. Lekin buni badiiy asarni muayyan bir davrga bog'lab qo'yish deb tushunmaslik lozim. Shu jihatdan qaralsa, so'z san'atining tadriji, avvalo, mazmundagi o'zgarishlar bilan xarakterlanadi.

Usmon Azim ijodidagi o'ziga xoslik tom ma'noda ana shu xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Inson psixologiyasi, asosan, davr psixologiyasining bir parchasi sifatida namoyon bo'ladi. Odamzodning maqsad intilishlari, o'y – fikrlari,

quvonch va tashvishlari, kechinmalari – hamma-hammasi yana o'sha davrga, davrning muammolariga judayam bog'liq holda tug'iladi. Shuning uchun ham she'r inson qalbiga sokin bir musiqadek, ohangrabodek oqib kiradi va tuyg'ularini jumbushga soladi. Shu bilan birga she'r insonni tarbiyalovchidir. Endilikda ijod sohasida ham komil inson yanada keng qamrovga ega bo'lgan tushuncha sifatida qaralmoqda. Moddiy olamning harakatga kelishi mamlakat infrastrukturasini, jamiyat kayfiyatini, uning ustuvor qadriyatlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada komil inson konsepsiyasi inson va jamiyat tarbiyasining asosini tashkil etgan qadriyat sifatida o'zining yangi mazmuniga ko'chdi. Bu esa davr va shaxs o'rtasidagi munosabatni ham o'zida aks ettirganligini bildiradi.

Demak, davr shaxsni tebratdi, shaxs she'rni. O'z navbatida she'r odamlarga ta'sir qildi, odamlar esa davrga. Bu borada Usmon Azimga o'xshash shoirlar ijodi ayniqsa o'z ko'lamdorligi bilan alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ko'rinadiki, shaxs – shoir avvalo davr va she'r o'rtasidadir. Davrning ruhi she'rda qanday va qay darajada aks etishi o'rtada turgan shaxsga, uning salohiyatiga bog'liq. "Agar ta'bir joiz bo'lsa, shunday degan bo'lardim : davrning ruhi, kayfiyati nur bo'lsa, shaxs va ana shu nurni bir nuqtaga to'plab, o'zidan o'tkazguvchi shaffof jism – linzadir .Bu tomonda issiqlik ilinjida turgan odamlarning qachon va qanday olovga ega bo'lishlari o'sha jism (linza) ning nechog'lik ishga yaroqliligiga – shaffofligiga bog'liq"¹³. Ya'ni, shaffof – linza deganda Ulug'bek Hamdam shoirlarni nazarda tutadi. Aytish mumkinki, har bitta davr boshqa davrdan o'zining muayyan siyosiy – ijtimoiy – psixologik kayfiyati bilan farq qiladi. She'r, umuman, har qanday san'at asari, ana shu muhit – kayfiyatdan o'sib chiqadi va ba'zan o'z davrigagina xizmat qilsa, ba'zan o'zining ramziyligi, ma'no ko'pqatlamliligi bois boshqa zamonlar iste'moliga ham kirib boraveradi.

She'riyat ijtimoiy hodisa sifatida insonning ruhiy mohiyatidan ibtido oladi. Shu ma'noda odamzodning hozirgi holatga kelishi, ya'ni insonning insonga aylanishi faqat tashqi omil – insonning zoti bilan, unga joylashgan ruhiy

¹³ U.Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati. – T.: Sharq, 2014. 63-bet.

mohiyatning ijtimoiylik shaklida namoyon bo'lishi bilan ham bog'liqdir. Ya'ni, ijtimoiylik tashqaridan yopishtirilgan yorliq emas, balki insonning qonida mavjud mohiyat bo'lib, uning uzoq yo'lni bosib o'tishi natijasida bashariyat bugungi tamaddunni qo'lga kiritdi. She'riyat esa ana shu mohiyatning namoyon bo'lish shakllaridan biridir. Shoirlar bu mohiyatning ta'bir joiz bo'lsa kashshoflaridirlar.

Har qanday yaxshi she'rning markazida o'zining quvonch va tashvishi, orzu va armoni bilan inson turadi. She'r xuddi shu insondan, uning tabiati, maqsad va intilishlari, yanada to'g'risi, inson haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib tushuniladi. O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning she'rlarida ishq va muhabbat dardi mumtoz adabiyotimizga xos so'z va mastona ohangda emas, balki zamonaviy tarzda, jiddiylik va bardamlik uslubida ifodalanganini sezamiz. Shoir she'riyatida aql – idrok, muhokama va mulohazalar ishtirokida, solim hissiyot bilan fikr yuritiladi.

Masalan, shoir “Yoshlik” she'rida yozishicha: “sevgi qayg'u, falokat emas, u yam-yashil o'tloq va baxmalsimon orzular”, sirasida namoyon bo'ladi. Yana bir jihat shoirning o'zi e'tirof etishicha, u she'rlarida “uzoq bir ishqning sharhini” beradiki, bu “uzoqlik” zamiridagi ishq ilohiymi yoxud realmi, majoziyymi, uni aniq his etish mushkul.

II.BOB. USMON AZIM SHE'RLARIDA KUZ TASVIRI VA XARAKTER RUHIYATI

Usmon Azimning “Saylanma”, “Kuz” va boshqa majmualaridan o‘rin olgan qator she’rlaridan ayonki, uning “uzoq ishq” Alloh ishq yoxud o‘zi o‘ziga qoim zotning muhabbati emas. Balki bu – lirik qahramonning real ishq bo‘lib, hayotdagi mahbubaning vasliga yetish mashaqqatlari hajridir. Shu tariqa, Usmon Azim ijodidagi muhabbat hayotga muhabbat va inson sevgisi bo‘lib, u orzular va samimiy hissiyot bilan ifoda etiladi. Shuni alohida qayd etish joizki, zamonaviy she’riyatda nafis ohang va tuyg‘ular taassuroti boshqacha shaklda namoyon bo‘lmoqda.

Endilikda, shoirlar she’rlarini o‘quvchining estetik didi, saviyasi, orzu - istagi va dil izhorini hisobga olgan holda, shabadadek mayin, shabnam kabi tarhi toza, guldek nazokatga boy shaklda oro berib taqdim etadilar. O‘quvchi she’r o‘qiganida xayolot bilan chulg‘angan orzu-armonlarga g‘arq bo‘ladi va nafosat dunyosiga sho‘ng‘iydi. U she’rdagi so‘zlar haroratidan, go‘zalligidan, balki so‘z emas, dilkash ohangidan masrurlik his etadi. Usmon Azim nozik hissiyot bilan yozadi, she’rni mayin navo, ta’sirchan tuyg‘u va yurakdan joy oladigan muhabbat deb biladi. Uning satrlariga bir e’tibor bering-a:

Gulim...

Ko‘chadan sotib oldim seni,

Ko‘klamga yarashiqsan...

(“Gulim” she’ridan)

yoki :

Jonim manim,

Qalbim manim,

Ko‘zim manim,

O‘zga vujud aro topgan o‘zim manim,

Yuzsiz qolgan bu dunyoda yuzim manim.

Ko‘zim manim,
Ko‘zimdagi so‘zim manim...
(*“Bir sevgi” she’ridan*)

Tun bo‘yi guvladi taqdir shamoli
Tushimda,
Jonimda,
Qalbimda esdi.
Uchdi sukunatning baxtli kamoli.
(*“Kichkina baxt” she’ridan*).

Usmon Azim she’riyati – taqdirlar davomi va yillar orzusi. Shoir she’rlari hayot kabi go‘zallik nashidasidan sarchashma olgan tuyg‘u va ayni paytda, metin kabi mustahkam nidolardir. Har bir she’ri yaxlit shaklga ega va ularni sinchiklab o‘rganish natijasida ijodkorning mahoratini ilg‘ab olish mumkin. Jumladan, uning “Sarson qushlar” she’rida salmoq bilan aytilgan quyidagi misralariga diqqatni qarataylik:

Qanotlari kesilgan qushlar
Er hukmiga etib rioya,
Umlarin etagin ushlab
Yashaydilar monandi soya.
Tushlarida entikish, parvoz,
Ammo tushning umri qisqadir.
Hamma tashvish – baxtga iqtibos,
Chin hayotdan chala nusxadir.

Shoirning so‘zlarida bir sohirlik mavjud. Ularni kishi o‘qib ba’zan hayron qoladi: ular ixtiyorsiz ravishda o‘quvchini o‘ziga tortadi, alohida kayfiyat bag‘ishlab, davomli iliq qissa kabi shirin orzularga chorlaydi. Bu borada “Kuz” majmuasidagi birinchi, epigraf sifatida keltirilgan “Yomg‘ir hidi” nomli xayolomuz she’rning boshlanishiga e’tibor beraylik:

Yomg'irli kechada falakka uchdim,
Shamollar yuzimga yopishdi ivib.
Yulduzlar armonli shivirga tushdi:
Yomg'irning hidi-ku, yomg'irning hidi!

Shoir shunday sehrli va nazokatli she'r yozishi lozim. She'r faqat qofiya, radif, vazn va san'atlar tizimidan iborat bo'lmaydi. U oddiy so'z bo'lsa-yu, ammo o'quvchini maftun etsa, xayolot dunyosiga chorlasa va bu sayohat orzu - yu armonlarga chulg'anib kishini koinotga olib chiqsa – bu haqiqiy mushohada va taassurotdan iborat ohangdor so'z bo'ladi, yangi ruhdagi e'jozmonand she'rga aylanadi. Usmon Azim she'rlarining ko'pchiligi shu tarzda yaratilgan va undagi shoirona did, nazariy g'oya va teran mulohazalar hissiyot tufayli kuchli joziba va quvvat kasb etgan. Ta'kidlaganimizdek, Usmon Azim she'rlari obraz va topilmalarga boy. Shoirona obrazlar tizimi, she'riy gardishlar, nodir san'atlar silsilasi shoir she'rlariga joziba baxsh etib, ularni serjilo timsollarga aylantirgan.

Shoir mahbubaning shamolda hilpirayotgan yengini semurg'ning qanot qoqishiga qiyoslab, rangorang manzaraviy bir holat yaratadiki, o'quvchi uni o'qib o'yga cho'madi:

Semurg'ning qanotiday
Nega hilpirar yenging?
Men ham dasht hayotimni –
Seni sog'inib keldim.

Sog'inish – kimgadir va nimagadir qattiq intilib, qo'msashdir. Dashtdagi hayotni sog'inish, yurtni sog'inishdir; u bilan lirik qahramonning taqdiri bog'langan; uning quchog'ida tug'ilib, ulg'aygan. Shuning uchun lirik qahramon dasht hayotini eslaganda, uning shamoli, o'ziga xos ko'rinishi, har bir faslning bir-biridan farqli qiyofasi, bahordagi rangorang gullari haqidagi tuyg'ularini ifoda etadi:

Shamol mening taqdirim
Bahorda bir ochilmoq.

Usmon Azim boshqa bir she'rida tun manzarasini ifodalab, koinotdagi somon yo'liga e'tibor qaratadi va uni tog'dan tushayotgan uzun sharsharaga qiyoslaydi. Ushbu qiyos sabab teran shoirona did va go'zal taxayyulot yodga tushadi. Somon yo'li haqiqatdan sharsharaga o'xshaydi: rangi bilan ham, harakati bilan ham.

Somon yo'li – sharsharani

Shopirar bog' uzra tun.

Quchog'ida kapalakni

Bosib-bosib uxlar gul.

Shoirning "Bezovta bahor" she'rida shunday satrlar bor:

Qo'lingda hech narsa yo'q edi sening,

Ammo...

Topmoq istab ko'nglimni

Xuddi guldastaday tutding qo'lingni.

Qanday hayratbaxsh so'z! Ushbu satrlar o'quvchi ruhiyatini hayajonga keltiradi.

Yurak, sen mavjdirsan, mavjdagi oysan,

Daryosan, qudratsan, mangu harakat.

Tiniq oqishlarga hamisha boysan,

Qaqragan dunyoga madad - barakat.

Inson yuragi shoirona tasvir tufayli ilohiy qudratga aylangan, dunyo timsoli va uning vujudi bo'lgan yurak haqiqatan shunday kuchga ega, ammo uni shoirona tasavvurot ila tasvirga tushirish san'atdir. Shoirning boshqa bir she'rida go'zal libosga o'ranib xiromon borayotgan hurliqo mahbuba keyingi satrlar og'ushida kelinchakdek bezangan shakl - shamoyilda tasvirga tushiriladi:

Sening liboslaring qanday chiroyli,

Ufurar bo'yiningda qanday atirlar?

Borasan – go'yoki bir go'zal oyni

Avaylab chulg'amish harir abrlar.

Mazkur satrlar binosi dilkash iboralar orqali qad rostlagan. “Chiroyli libos”, “atrlar ifori”, “go‘zal oy”, “harir abrlar” nazokat bilan aytilgan husnoro iboralar bo‘lib, she’rga nafosat, sokinlik, xushbo‘ylik va chiroy baxsh etgan. Shoirona badiiylik va jonfizo tasvirlar shunday bo‘ladi. Ammo zebo libosga o‘ranib borayotgan oydek mahbubaning yo‘li tuganmasdir, lirik qahramon butun umri davomida uni kutadi va yo‘liga intizor bo‘ladi, lekin mahbuba yetib kelmaydi: maqsadi yorga azob berish, uni intiq qilish va unga toqat, sabr - bardosh tilashdir. Oxir - oqibat mahbuba yo‘lidan qaytadi, uyga kiradi va farog‘at topadi. Tongda u derazani ochsa, atrof oppoq qor. U yo‘lga chiqmaydi. Qanday tasvir bu? Oshiqona va shoirona taxayyulga o‘rab aytilgan bir tuyg‘u va orzu bo‘lsa kerak, albatta. Maqsad shirin so‘zlar, nozik adolar va yoqimli hikoyatlar bilan shoirona ilhomdan bashorat berish va uni o‘quvchi xayolotiga joylashtirish, uning zavqini keltirish va nafosat dunyosiga olib kirishdir. She’riyatdagi bunday tashbehlar shoirona hunar bo‘lib, u adabiy taxayyul, deb ataladi. Usmon Azim esa bu san’atning donishmand vakili sifatida sahnaga chiqqan va uning yangragan mayin taronasi bu ohangda jilva etgan:

Umrim tugayapti – yo‘qdir daraging,
Sensiz vujudimda qancha toqat bor?
Tongda derazani ochding, qarading –
Tashqarida qordir, tashqarida qor.

Shoirona nafis tasvir va cheksiz taxayyul Usmon Azim she’rlarining mohiyatini tashkil etadi. Zotan, she’r taxayyulsiz bo‘lmaydi, unda badiiy xayolot asosiy o‘rinda turadi. Usmon Azim she’riyatida esa bu hunar butun jozibasi bilan namoyon bo‘ladi. Tasvir va taxayyul, o‘z navbatida, obrazli so‘zlarni vujudga keltiradi.

Ikki qoshing – ikkita qanot
Ikki ko‘zing – ikki umidqush...
Dunyo kabi ko‘nglim yorishsin,
Qon ichida kulgu yarat... kul.

Lablarimda manim ochilsin

Shafaq rangli g'uncha – qizil gul.

Mazkur shafaq rangli misralar haqiqatan ko'ngillarni yoritadigan dilkusho kuchga ega. Mahbuba kulgusi va tabassumi – oshiq uchun jonbaxsh ozuqa va tiriltiruvchi kuch. Shu bois, shoir orzu-umid va qizil gul nashidasi tarafdori, ularni mehr bilan tasvirlaydi. Bu esa Usmon Azimning she'riy dunyosi va u she'rlar dunyoning ranginkamoni, nafosat - u issiqligi. Shuning uchun ham uning she'rlari adabiy - badiiy va ilmiy - uslubiy tahlilga loyiq. Taniqli munaqqid Umarali Normatov Hamidulla Boltaboev bilan adabiyot nazariyasi masalalari haqida yaqinda qilgan bir bahsida "Usmon Azim juda monand holda, tong nasimi va shabnam kabi nazokatli hamda, nurli adolar libosida ayta oladi"¹⁴ - , degandi. Usmon Azim she'rlarida an'ana ham bor, lekin ular yangi tipdagi zamonaviy ijod namunalari va bugungi o'quvchiga ma'qul hamda maqbul tushadigan san'at taronalaridir. Shoir so'zda tanosub san'atiga qattiq rioya qiladi. Uning she'rlarida har bir so'z, ta'bir, ibora uslubiy hamohanglikka ega va, shu sabab, ular marjonga o'xshab ketadi, ravon va musalsal o'qiladi, o'quvchi diqqatini tortib, boshdan oxirigacha langar kabi mavzun va musiqa kabi muassir va muqtadir she'rlar sirasini eslatadi. Masalan, quyidagi baytlarda gullarga o'ralgan shamol va undan taassurotga botgan yurak bir-biriga payvand tarzda, zanjir kabi silsilador ohangda tasvirlanadi. Shoirning hamma so'zlari tanosubda va ulardan so'z emas, dilnavoz ohang eshitiladi, o'quvchi bir olam xayolotga botadi. Bu baytlarni shabada va shabnamga o'xshagan nafosatli diljo' she'rlar namunasi deyish mumkin.

O, bog'lar gulladi,

Ilidi shamol.

Yomg'irga yelka tut – o'sasan yurak...

Sen qanday yaxshisan –

Mana, bermalol

¹⁴ Tafakkur jurnali. 2009-yil, №1. 77-bet.

Aylanib-aylanib

Turasan falak.

Usmon Azim she'rlarining yana bir xususiyati ularning qanot qoqib baland parvoz qilishida. Masalan, ularning ba'zilar chamanoro qushga o'xshab, goh mayin, goh g'ulg'ulador parvoz qilsa, ba'zilar yuksaklikni zabt etish uchun shiddat kasb etadi. Zotan, agar she'r shoir ostonasidan nari o'tmasa, xira va qorong'uda qolib, o'z xususiyatini yo'qotsa, muallifni barvaqt mahv etadi. Shoirning ruhiyat nafasi bilan og'ushta she'rlari, birinchi navbatda, go'zallik timsoli va sarchashmasidir. Shu bois, ularning parvozi haqiqatan lochin parvozigacha o'xshaydi va o'zlaridan tabiiy bir nur taratadi. Usmon Azim she'rlari shunday xususiyatga ega. Bunda esa nafaqat she'rning mazmuni, balki uning ohangi ham muhim ahamiyatga ega. **Intonatsiya**(lat. Intonate-qattiq talaffuz etish) – **ohang** degan ma'noni bildiradi¹⁵. Chunonchi, shivirlab osoyishta o'qiladigan quyidagi ta'sirli misralardan mazkur rang - baranglik holatiga g'arq bo'lish aniq va bu holatlar esa maftunkor va e'zozli quyosh ziyosiga o'xshab ketadi:

Ariqlarda oqib borar oy –

Ariq borar ko'tarib fonus.

Oydin kunda kechganicha loy,

Pishqirmasdan suv ichar poliz.

O, qanaqa ertakdan tushdi –

Yonarqurt - ku bu tirik olov?!

Uning mitti shafag'in quchdi

Yulduz kabi to'kildi qirov.

O, naqadar farog'atda dil –

Dil oy kabi sochadi ziyo.

Meni nega qiynading qirq yil,

Baxtli bo'lish oson - ku, dunyo?!

¹⁵ Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. 344 б.

Usmon Azim ijodi serqirra g'oyalarga boy. Shoirning lirik va epik she'rlari bir ummon. Ularning asos mohiyati ishq muhabbatdan iborat va biz ularning ayrim namunalari bilan tanishdik. Shoir she'rlari ko'pincha aqliy muhokamalar bilan qorishib ketgan. Bu esa jiddiylik hamda donishmandlik samarasi va alomati. Zamon bilan hamnafas shoir she'rlari mazmundor va bugungi hayot ohangini aks ettirayotgan go'zal asarlardir. Baxshiyona ohangdagi she'rlari xalqona va o'ynoqi xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Bu xalqona va o'ynoqilik zamirida juda katta falsafiy donishmandlik va ijodiy tajriba yotadi. Shoir ko'p nasriy asarlar, jumladan, qissa, hikoyalar muallifi hamdir. Bularning hammasi Usmon Azimning ijodiy salohiyati kengligi hamda mo'lligini ko'rsatadi. Tug'ma shoir she'riyatga alanga yanglig' kirib keladi. Zamonning o'tkinchi shamollari uning qalbidagi olovni so'ndirishga qanchalik urinmasin, iste'dod olovi yildan - yilga, davrdan - davrga yanada porlab - balqib boradi.

Yoshlikning jo'shqin soylari bora - bora ikki yoni baland teraklar bilan qurshalgan anhorga kelib qo'shilganidek, uning she'rlaridagi jangovar ruh sekin-asta o'ychanlik va falsafiylik kasb etib, kumush mavjlar taratib oqa boshladi. Agar shoirning ilk she'rlaridan zamonning, tarixiy davrning yangroq sadolari jaranglab turgan bo'lsa, endi uning she'rlarida shoir qalbining turfa tamannolari ustuvorlik qiladigan bo'ldi. Usmon Azimning 1979 - yili olam yuzini ko'rgan ilk she'rlar to'plami "Insonni tushunish" deb atalgan. U shu vaqtdan boshlab har bir she'rida insonni tushunish, uning murakkab ruhiy olamini kashf etish yo'lida izlanib keladi.

She'riyatning bosh qahramoni garchand Inson deb atalgan bo'lsa - da, bu inson aslida shoirning o'zi ekanligi ma'lum. Binobarin, shoir o'zidagi insonni, uning ruhiy olamini, uning iztiroblari, alamlari, tug'yonlari, shuningdek, erkaliklari, sevinchlari, quvonchlari, farog'atli va baxtli daqiqalarini tushunishga va, albatta, ohori to'kilmagan bo'yoqlar yordamida aks ettirishga intiladi. Biz Usmon Azimning "Insonni tushunish"dan boshlab kuni kecha chop etilgan "Yurak" va "Fonus" to'plamlarigacha bo'lgan ijodi sahifalarini varaqlab, ulardagi she'riy durdonalarni o'qir va bu durdonalarda ifodalangan poetik mazmunni

ilg'ashga intilar ekanmiz, shoirning shu davr mobaynida hozirgi o'zbek she'riyatining eng peshqadam namoyandalardan biriga aylanganiga ishonch hosil qilamiz.

Biz yuqorida "durdona" so'zini bejiz qo'llamadik. Bu so'z adabiy - tanqidiy maqolalarda g'oyat oz qo'llanadi. Ammo Usmon Azimning o'qtin - o'qtin turli gazeta va jurnal sahifalarida e'lon qilingan she'rlarini o'qigan kitobxon ularning aksari bugungi o'zbek she'riyatining chindan ham durdonasi ekanligiga amin bo'ladi. Usmon Azim she'rlarining, o'ylaymanki, she'riyat muxlislariga manzur bo'ladigan jihatlari oz emas. Shulardan biri ulardagi poetik fikr, tuyg'u va kechinmaning g'oyat go'zal va nafis ifodalanganidir. She'riyatga kirib kelar ekanlar Usmon Azim va uning tengdoshlari shoirning vazifasi o'tmishdoshlarni takrorlash emas, balki poetik mazmunni ifodalashning yangi usul va vositalarini topish, yangi poetik obraz va bo'yoqlar yordamida voqelikni, shu voqelikning ruhiy va ma'naviy markazi – Inson qalbida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tasvirlash ekanligini angladilar.

Ayniqsa, Usmon Azim doim ijodiy izlanish muhitida yashadi va hozir ham yashab kelmoqda. Shubhasiz, har qanday shoir ham muayyan ijodiy marraga chiqib olganidan keyin shu marra atrofida aylanib qolishi, ijodiy topilmalarining rang - ro'yini ketkazib yuborishi hech gap emas. Agar shoir o'z iste'dodining yangi imkoniyatlarini, yangi qirralarini kashf qilishda davom etmasa, u yangi ijodiy dovonga ko'tarila olmaydi. Usmon Azimning doim ijodiy yangilanib turishining baxtli sabablaridan biri shundaki, u bir adabiy turdan ikkinchisiga, bir janrdan boshqasiga tinmay o'tib turadi. Shoirning ketma-ket hikoyalar, pyesalar va kinossenariylar yozishi, turli janrlar, mavzular va qahramonlar muhitidan nafas olishi uning muntazam yangilanib turishiga imkon yaratmoqda. U shunday yangilanish pallalarida avval topgan poetik obraz va bo'yoqlarni yanada o'ynatib - yashnatib yuboradi. Eng muhimi, u Xitoy devorini "yorib o'tgan" ko'zbo'yamachi David Kopperfilddek, his va tuyg'ular olamiga nur tezligi bilan kirib, lirik

qahramonning yoniq ruhiy holatini bir - ikki chizma bilan yaqqol gavdalantirib beradi. Usmon Azim muhabbat haqida ko‘p va xo‘p yozgan.

Agar uning avvalgi she‘rlarida lirik qahramonning sevgi tuyg‘ulari ifodasida ravshanlik va hatto porloqlik ustuvorlik qilgan bo‘lsa, so‘nggi she‘rlarida porlab yongan mushaklarining kullari tasvirga tortilgandek tuyuladi. Ammo bu so‘ngan sevgi kullari emas. Lirik qahramon sevgisi (binobarin, shoir sevgisi) olovlangan bo‘lsa olovlanganki, aslo so‘nmagan. Faqat shoir endi sevgi haqida minbar oldida turgan olomonga emas, balki eng yaqin kishisining, sirdoshining qulog‘iga shivirlab aytadi. Usmon Azimning muhabbat lirikasi so‘nggi yillarda shunday qiyofani olgan: u so‘zga xasis, lirik qahramon qalbini o‘rtovchi iztirob yolqinini shoir bir-ikki obraz, bir-ikki chizma bilan ifodalaydi, xolos. U shunday usul bilan so‘zning she‘riy matndagi vaznini, salmog‘ini oshiradi va ayni paytda she‘rxonni she‘rni chuqur his etishga, har bir so‘z va har bir poetik obrazning mag‘zini chaqishga da‘vat qilgandek bo‘ladi. “Qalandar ishq” deb nomlangan buyuk g‘azalida Cho‘lpon yorga butun borlig‘i bilan berilgan lirik qahramonning armonli ruhiy holatini tasvirlab, bunday yozgan edi.

Muhabbatning saroyi keng ekan yo‘lni yo‘qotdim-ku,

Asrlik tosh yanglig‘ bu xatarlik yo‘lda qotdim-ku.

Karashma dengizin ko‘rdim, na nozlik to‘lqini bordir,

Halokat bo‘lg‘usin bilmay qulochni katta otdim-ku.

Ajib dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do‘stlar,

Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku...

Agar Cho‘lponning lirik qahramoni yorga muhabbati tufayli u dunyodan mahrum bo‘lgan bo‘lsa, Usmonning lirik qahramoni shunday yolqin sevgisi tufayli u dunyodan ham, bu dunyodan ham ayrilgan. Shoir bir she‘rida yozadi :

Men seni deb azoblarga urdim bosh,
Men seni deb xatolarga qayrildim.
Men seni deb gunoh bo‘ldim, bag‘ri tosh,
Men seni deb bu dunyomdan ayrildim.

“Tangrim” dedim – bir bandacha bo‘lmading,
“Tangrim” dedim – tubanlarga qayrilding.
Yuz o‘girdim – xayolimda so‘nmading,
Men seni deb u dunyomdan ayrildim.

Shoirning talqin etishicha, lirik qahramon har ikki dunyodan mahrum bo‘lganiga va gunohlarga botganiga qaramay, bir narsaga erishganki, bu narsa ikki olamga teng bebaho boylikdir. Shoir shu fikrni lirik qahramonning g‘ussador kayfiyatidan kelib chiqqan holda quyidagicha ifodalaydi:

Oh, lahzada yo‘qlar etding, bor etding,
Boringa ham, yo‘g‘imga ham sen yorsan.
Meni qanday gunohlarga yor etding,
Ikki dunyom yo‘qdir, faqat sen borsan.

Aytish mumkinki, Usmon Azim shu she’rda ustoz shoir bilan mubohasaga kirishib, u topgan poetik obrazni go‘zal bir shaklda davom ettirgan va unga yangi falsafiy ma’no bag‘ishlashga, lirik qahramonning yorga bo‘lgan muhabbatini yanada ulug‘lashga erishgan. Shoir shu she’r orqali chin sevgi inson ruhini pok va bokira tuyg‘ular bilan boyituvchi, uni ilohiy yuksaklik sari etaklovchi omil degan yuksak g‘oyani olg‘a suradi.

Bizga ma’lumki, o‘zbek mumtoz she’riyatining eng go‘zal namunalari ajoyib poetik topilmalari, chuqur ma’noli obrazlari, tashbehlari, musiqiy navolari bilan tovlanib turadi. “XX asrning 20-yillarida mumtoz aruzdan zamonaviy barmoqqa o‘tilganda, ana shu ranginlik “feodal davr lirikasi”ning belgisi sifatida

sho‘ro davri she‘riyatiga yo‘naltirilmadi”¹⁶. Oradan bir qancha yillar o‘tib, “sof lirika”ga qarshi kurash alangalari so‘ngach, dastlab erkin Vohidov va Abdulla Oripov, so‘ngra Rauf Parfi, Shavkat Rahmon va Usmon Azimlar avlodi o‘zbek she‘riyatidagi fikr va tuyg‘u ifodasining nafislashishiga yordam beruvchi tasvir usuli va vositalariga keng murojaat etdi. Usmon Azimning shu boradagi izlanishlari natijasida istioraning o‘zbek she‘riyatidagi badiiy vazifasi behad darajada oshdi. Xususan, shoir istiora va boshqa tasvir vositalari yordamida tuyg‘uning ong orti harakatlarini ham tasvirlash mahoratini mukammal egalladi.

Ijodkorning shunday she‘rlarida ifodalangan poetik mazmunni bayon qilish tirik she‘rni o‘ldirish bilan baravar bo‘lganidek, uni tahlilga tortish ham qariyb shunday hodisa. Shuning uchun ham Usmon Azimning “Yomg‘irli kechada...” so‘zlari bilan boshlangan she‘ridagi lirik qahramon ko‘nglida tug‘yon urgan tuyg‘ular harakatiga e‘tibor qaratsak:

Yomg‘irli kechada falakka uchdim,
Shamollar yuzimga yopishdi – ivib.
Yulduzlar armonli shivirga tushdi:
- Yomg‘irning hidi-ku...
- Yomg‘irning hidi!..

Bir yulduz iltijo etdi tangriga
Istig‘for so‘zida nur bo‘yi anqib.
- Qanday soz - yotmoqlik yerning tagida –
- Yomg‘irni eshitib uxlamok baxti!

Ular havas bilan menga boqdilar,
Kumush changlariga ko‘mildi jismim.
- Baxtliman, yulduzlar meni yoqdilar,
- Xudoyim! Zaminga bermagin izmim.

¹⁶ Ёўлдошев Қ, Ёйрик туйғулар куйчиси// Тил ва адабиёт таълими. 2010. № 8. 57-б.

O‘zimning dardimni men shunday aytdim –

Ko‘z yoshdan samoviy quvonchim ivib.

Yulduzlar tilidan sha’n shivir qaytdi:

- O, g‘ussa hidi-ku!

- G‘ussaning hidi...

Qanday go‘zal she‘r bu she‘r! Uning biror bandini emas, hattoki biror satrini ham qisqartib olishning iloji yo‘q! Shu she‘rni o‘qir ekanman, Dilorom Omonullaevaning latif musiqasi va Kumush Razzoqovanning dilnavoz ovozi bilan el - yurtga manzur bo‘lgan shoirning “Yomg‘ir yog‘ar mayda - maydalab” qo‘shig‘i yodimga keladi. Yomg‘ir – Usmon Azimning sevimli obrazlaridan, yomg‘irli kun yoki tun esa uning qalbini junbushga keltiruvchi tabiat mo‘jizalaridan biri. Agar yomg‘ir yosh yigit va qizlarning muhabbat tuyg‘ulariga jo‘rovozlik qilsa, umr bahorini ortda qoldirgan kishilarda daf‘atan g‘ussa tuyg‘usini uyg‘otib yuboradi, o‘tayotgan umrning uchqurligini yodlariga solib, ularni hazin va mungli kayfiyat og‘ushiga oladi.

Biz mazkur she‘rda aynan Shu so‘nggi ruhiy holatning tasvirini ko‘ramiz. Lirik qahramon o‘zi sevgan yomg‘irli kechada qanot bog‘lab uchgandek bo‘ladi. Yomg‘irdan ivigan shabada uning yuziga urilib yopishadi. Bu g‘aroyib manzarani ko‘rgan yulduzlar yer tagida yotgan kishilarga havas qilishadi. Ular - osmonda charaqlab turgan yulduzlar nazdida yer tagida yomg‘ir navosini eshitib uxlash nash‘ali edi. Ular ana shu baxtdan bahramand bo‘lishi mumkin bo‘lgan lirik qahramonga havas bilan boqib, uni kumush nurlar changiga ko‘mib yuboradilar. Bu ular tomonidan lirik qahramonga ko‘rsatilgan mehr - muhabbatning belgisi edi. Ammo lirik qahramon hatto kumush nurlar changida ko‘milishni ham xohlamay, tangriga: “Zaminga bermagin izmim”, - deb yolvoradi. Yomg‘ir hidi bilan mast bo‘lgan yulduzlar uning bu yolvorishidan g‘ussa hidini sezaдилar. “O, g‘ussa hidi - ku! G‘ussaning hidi”, - deb shivirlashadi ular. O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning she‘riyatida o‘ktamlilik va tetik ruh mavjud. Shoirning jo‘shqin ehtirolarga yo‘g‘rilgan:

Tong titraydi kech kuzakning quchog'ida,

Yulduzlarni o'chirmoqda gulgun shafaq,

Jonim, qalbim she'riyatning pichog'ida...

Zamin – tilsim, osmon – tilsim... she'r – beshafqat –

satrlari bilan boshlanuvchi tamomila o'ziga xos bir shiddatda yozilgan she'ri uni, shubhasiz, dolg'ali shoir sifatida e'tirof toptirdi. O'sha she'rdagi: “Qiynoq, senga bo'lsin sharaf !” satri va eng so'nggi: “Bu dunyoni sirga ko'mib yashash kerak, Qalbgga sanchib she'riyatning pichog'ini!” misralari uning hayot a'moli, she'riyatining bosh mayog'idek tasavvurni barqaror qildi. Haqiqatan ham, kech kuzak – ko'hna adabiyotimiz, she'riyatimiz bag'rida otayotgan tong misol o'ng - u so'lga alanglab yangi, navqiron she'riy nafas paydo bo'layotgan edi. Tabiatda ko'rilganidek charog'on yulduz, ya'ni, she'r ustozlari fonuslaridan yorug'roq, ularni o'chirmoqqa, o'zinikini tasdiq etmoqqa qodir sarkash ruh yal-yal yonib paydo bo'layotgan shafaq kabi qizg'in, otash nafasi ila kirib kelayotgan edi. Uning shiori qiynoq, ya'ni, o'zni izlash, “qalbgga pichoq sanchib” – uni beayov titib, o'zlikni ifoda etmoq, muttasil hayratlar uyg'otib, dunyoni sir - u sinoatga ko'mib yashamoq edi. Shundanmikan, nazarimda, Usmon Azimda doim yoshlik ufurib turadi.

Usmon Azim hamisha shoir, faylasuf shoir, katta shoir. U hamma narsani she'r qila oladi, hamma narsadan she'r yasay oladi. Yo'q, she'r deganda, turog' - u qofiyanigina nazarda tutayotganim yo'q. Bu - ku o'z - o'zidan. Uning she'r degani hamisha fikr, odam, tiynat va tabiat. Usmon Azim garchi she'r dunyosidagi bepoyon kengliklarda ruhiy parvozning avj darajalariga ko'tarila olgan esa - da, u yoyilibroq so'z aytishga, ochiqroq fikr, munosabat bildirishga moyil bo'la boshladi. Dard – har qanday badiiy ijodning qoni. Inson tanasida qon aylanmas ekan, u yashamaydi. Badiiy asar tarkibida ham qon yanglig' dard bo'lmasa, bunday asar jondan, jonlilikdan mahrum.

Demak, haqiqiy badiiy asar dardsiz bo'lmaydi. Ammo uning namoyon bo'lishi har xil. Binobarin, salmog'i, darajasi ham turfa xildir. Tusi, tabiati,

ahamiyati ham turlicha. Badiiy ijodda dard garchi xususiy holatda, individuallashtirgan voqea - hodisalar, obrazlar tasviri orqali namoyon bo'lsa - da, u hamisha ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy asar ommalashtirilgan ekan, demak, undagi dard ham ko'pchilikning qalbida aks - sado bermog'i kerak bo'ladi.

Ayni chog'da, qayd etish joizki, dard namoyon bo'lishidan qat'iy nazar, xususiy holatga taalluqli bo'lishi yoki ijtimoiy voqelik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Albatta, ularda ijodkorning dardi turli voqea - hodisalar, turfa obrazlar misolida turlicha namoyon bo'ladi. Ammo barcha asarlar negizidagi dard, tasvirdagi zamon - u makonidan qat'iy nazar, bugungi ijtimoiy voqelikka munosabat bo'lib, aynan shu davr jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan hodisa o'laroq jaranglaydi, mohiyat kasb etadi.

III.BOB. RUHIYATNI YARATISHDA LIRIK KECHINMA IFODASI .

Usmon Azimning umr kuzagidagi barcha asarlariga, nazarimda, she'riy eskizlar bordek tuyuladi. Vaqt jihatidan eng so'nggi "Fonus" she'rlar to'plami ana shu oxirgi o'n yillikda yaralgan she'rlardan tartiblangan. Shoir Usmon Azim savol qo'yimoqni yaxshi ko'radi. Ammo ko'p salaf - u safdoshlaridan farqli u o'z savollariga o'zi javob qilmoqni ham xush ko'radi. Chunki ayrim shoirlarda savol javob bilan birga tug'iladi. Shoirlar, odatda, ko'proq javob topganlarida xapriqadilar, o'zlariga sig'may qoladilar. Tezroq uni aytib - ifodalab, ko'ngilni, tafakkurni bo'shatib oladilar. Usmon Azim xuddi shunday, savollarni javobi bilan yaratadigan shoir. Shuning uchun o'ziga ishonib, gohi havolanib aytayotgandek tuyulsa - da, uni qabul qilasan:

Yolg'izligimning

yuksakligi bor –

chiqolmaysan.

Yolg'izligimning

teranligi bor –

tusholmaysan.

Yolg'izligimning

kengligi bor –

faqat senga

tordir.

Yolg'izligimning

hech kimi yo'q –

faqat parvardigori bordir.

Iste'dodning daraja - yu miqyoslari bo'lgani kabi, savol qo'ya biladigan shoirlarning ham so'rog' - u javob miqyoslari har xil, teranligi, qamrovlari turlicha, ifodasi, badiiyati o'ziga yarashadir.

Shu ma'noda Usmon Azim miqyosli savollar qo'ya biladigan va miqyosli javoblar topib, ayta biladigan nuktabin hassos shoir. Uning savol - u javoblari hech

qachon siyqa bo'lmaydi. Sodda bo'lar - u, ammo sira mayda bo'lmaydi – qalbdagi suvaydodan, ongdagi, ong ostidagi gohi g'alat zidliklardan to kurrayi zamindagi, Arshi muallodagi tilsim-u mo'jizotlargacha, ko'ngil epkinlaridan to o'lim - u abadiyat nisbatlarigacha, Boysun tog'laridan Vatan – O'zbekiston kengliklari, o'tmishi - yu buguni, dard - u armonlarigacha – bari uning savollari va javoblari. Haqiqiy shoirning ruh va fikr maqomi o'ziga xos, doimo yuksak bo'ladi.

Bu o'ziga xoslik va yuksaklikning muhim bir jihati – olomonni qiziqtiruvchi, olomonga maqbul keluvchi fikr va tuyg'ulardan shoir qalbining poklanishidir. Aks holatlarda shoir olomonning ortidan ergashib yurmasa-da, o'zi xoh istasin, xoh istamasin, olomon kuychisiga aylanib qolaveradi. San'at zavqi ila qalam tebratadigan shoirni olomon tushunmaydi. Tushunmagach, uning asarlarini to'g'ri qabul eta olmaydi. Shoir bundan hech nima yutqizmaydi, balki so'qirlik va qo'pollikdan o'zini - o'zi muhofaza qilishni go'yo qonunlashtiradi. Ya'ni uning she'riyatidagi zohiriy dunyo, botiniy haqiqatlar olamini sir saqlashga xizmat etadi. Sirga etish, go'zallik sirlarini kashf aylashni esa g'ofil kimsalar mutlaqo yoqtirishmaydi. Ular jo'nlikni, sayozlikni yaxshi ko'radi. Soxta chechanlik va jo'nlik olomonga hamisha yengillik beradi. Shuning uchun u o'z shoiri yoki yozuvchisini qo'llab - quvvatlash va ilhomlantirishda bag'oyat tashabbuskor. Bir paytlar, she'riyatimizga yetmishinchi yillarda va undan sal keyinroq kirib kelgan iste'dodli yoshlar ijodiga qarshi keskin hujumlar uyushtirilishi va ularning millatchilik hissiyotlarni yolqinlantiruvchi she'rlarini bepisandlik bilan tanqid qilinishiga asosiy sabab ham mana shu edi. Hurriyatchilik – she'riyatdagi eng ustuvor va eng umidbaxsh yo'nalish. Bu yo'nalishga qarshi turish yoki ma'lum bir vaqt uning harakatlarini susaytirish mumkin. Lekin hech qanday kuch uni batamom to'xtatish va yo'qotishga qodir emas.

Chunki Ruh erkinligi insonni davr va zamonning har qanday xavf - xatarlaridan muhofaza eta oladi. Ruhan va qalban ozod shaxs – yengish qobiliyati shakllangan shaxs. Uning tik qomatini fitna va bo'hton, jaholat va zulm to'fonlari buka olmaydi. Hasad va g'azab toshlarini u nokaslik va ojizlikning bir "tuhfa"si

sifatida qabul qiladi. Saksoninchi yillarga kelib she'riyatimizda so'zning yangi ta'sir quvvatini ochish, ramzlar, ishoratlar tili bilan asriy yolg'on va haqsizliklarni fosh etish tamoyili yanada kuchaydi. Ayrim shoirlarni millatchilikda ayblash xavfi xavf bo'lmay qoldi. Chunki uzoq muddat omma ongini chulg'ab olgan siyosiy xurofot asta - sekinlik bilan bo'lsa hamki, chekinishga boshlagandi. Bu hol eng sho'roparast ijodkorlarni ham bir qadar xushyor tortishga majbur etdi. Ular she'riyatdagi yangi va shiddatli mafkuraviy to'lqin istiqboliga avval ishtiboq ila qaradilar. Zaruriyat tug'ilganda, ulug' Cho'lpon va Fitrat merosini to'la oqlash yoki ularning g'oyaviy - badiiy an'analari davom topishiga qarshi ekanliklarini ham yashirmadilar. Bunday shoir - u yozuvchilarni qayta qurish va oshkoralik nasimlari ancha dadillashtirdi. Va ular fikran, ruhan qayta yangilanish azoblarini xayolga ham keltirmasdan, juda mohirlik bilan zamonga qayta moslashdilar. Oradan uncha ko'p fursat o'tmadi, ichki, ya'ni vijdoniy mustaqillikdan mahrum ayni shu shoir, shu yozuvchilar davlatimiz Mustaqilligining "muhofiz"lari qiyofasida minbarlarda ko'krak kera boshladilar.

Holbuki, erk va mustaqillik uchun kuyib - yongan bo'lsa, Erkin Vohidov, Abdulla Orif va Rauf Parfi kuyib - yongan edi. Shaxs hurriyati va Vatan ozodligi uchun umrini tikkan bo'lsa, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim tikkan edi. Yoki Miraziz A'zam, Cho'lpon Ergash, Omon Matjonga o'xshash shoirlarning she'riyatini xolis baholamasdan, qanday qilib odamlarni Mustaqillik adolatiga ishontirish mumkin?

Masalan, Usmon Azimning chop etilgan "Saylanma"si. Kitobdagi aksariyat she'rlar yaxshi tanish – oldin ham o'qilgan she'rlar. Lekin ulardagi hissiyot o'sha - o'sha: jo'shqin va tabiiy. Ehtiros o'sha: yoniq va shiddatli. Fikr shamoyili deyarli o'zgarmagan: ishonchbaxsh va murosasiz. She'r yozadiganlar ko'p. Ammo sevishga qodir, ko'nglini ishq ishg'ol aylagan shoirlar nihoyatda kam. Ehtimol, mana shuning uchun ham Usmon Azimning "Saylanma"sini o'qigan she'rxon tashqi bir dunyoga emas, balki ulkan bioshoirning ko'ngil bog'lariga sayru - sayohat qilganday bo'ladi. Shu bog'larning bahoriy manzara va quvonchlaridan

ruhlanadi, kuz quchog‘idagi holatlariga nigoh tashlab goh hazin, goh o‘ychan, goh g‘am - g‘ussali xayollarga beriladi. Qanday fikr yo g‘oya ilgari surilishidan qat‘i nazar, she‘r – holat, kayfiyat, ruhoniyyat suvratlaridir.

Xususan, ruhiy idrok va ruhiy anglash mayllari aks etmagan she‘rning quruq va yalang‘ochligiga toqat qilish qiyin. Usmon bu haqiqatni chuqur anglaydi. Uning “Ruhga ko‘chdim – tanim qolmadi”, deyishi ham shu haqiqatning bir e‘tirofidir. Imom G‘azzoliyning ta‘riflashicha, “Ruh insondagi idrok qiluvchi va biluvchi latiflikdir”. Usmonning oldingi hamma she‘riy to‘plamlariga nisbatan “G‘ussa” deb nomlangan majmuasida ana Shu latiflikning miqyosi keng va mohiyati teranlashgan. “Saylanma”da undagi she‘rlarga kengroq o‘rin ajratilgan va to‘g‘ri qilingan. “G‘ussa”dan tanlangan she‘rlar Usmonning fikr - qarashlarida kuchli siljish sodir bo‘lganligini anglash jihatidagina emas, balki uning she‘riyatida sifat o‘zgarishi hosil bo‘lganligini bilish ma‘nosida ham diqqatga molik.

G‘am yetdi dil xilvatlariga,

Yolg‘onlarning shu‘lasi so‘ndi.

deydi shoir. Yolg‘onning rangi voqelikning qiyofasini o‘zgartiradi. Yolg‘onlarning shu‘lasi dunyo ishlari va inson qismatiga to‘g‘ri nazar ila qarashga imkon bermaydi. Yolg‘on, shodlik va “quvonchning ko‘p zulmlari bor”ligini bilishga yo‘l qo‘ymaydi. Balki shuning uchun u boshqa bir she‘rida “Do‘stlar, iliq yolg‘on haydang – kuzga chiqsin qalbingiz” deya “zarif g‘ussa jomidan” sipqorishga da‘vat etgandir.

Agar shoir basirat nigohida nimanidir aniq ko‘rish yoki dunyoning murakkab haqiqatlarini to‘g‘ri va teran o‘zlashtirishni xohlasa, uning aqli har turli o‘tkinchi da‘volardan, keraksiz bahs - u munozara qo‘zg‘ovchi hissiyotlar, shaytoniy mayl va soxta talablardan forig‘ bo‘lib, mutlaq xotirjamlikka yetishmog‘i shart. Usmonning bir qator she‘rlari shunday xotirjamlik va ruhni yorishtiruvchi sokinlik shavqidan tug‘ilgan. U tazarru bog‘lariga yuz burarkan, qalb hayotidagi o‘zgarishlar va tushunchalaridagi evrilishlarni ham she‘rda mohirlik bilan aks ettiradi.

Kechirgin – erk uchun taloshganimni
va erk senligingni bilmaganim-chun.

Bu fikr – Tangriga iltijo. Va ayni paytda u erk uchun talashmoq, erksizlikning ayni o‘zi ekanligini anglagan, bandasidan erk - u Ozodlik kutish besamar ish ekanligini aniq bilgan yurak iqrori erur. Darhaqiqat, Ko‘ngil uchun Haq ishqidan ortiq va bepoyon hurriyat yo‘q. Eng so‘nggi najot ham insonni abadiyat saltanati – Alloh dargohida chorlovchi shu ishqdir:

Ishq, sendadir eng so‘nggi najot,
Uzat, toza dastingni uzat –
Sen yo‘q joyda g‘aribdir hayot,
Sen yo‘q joyda kishandir uzlat.

Biz “ma’no” so‘zini ko‘p tilga olamiz. “Ma’no” to‘g‘risida to‘xtovsiz gapiramiz. Ammo “ma’no” bag‘rida yashiringan ma’nolar bilan deyarli qiziqmaymiz. Ma’no – tasavvuf she‘riyatidagi bosh so‘z va yetakchi timsollardan biri. Sharqning buyuk mutasavvuf shoirlari bu so‘zga nuqta, haqiqat, ma’rifat (irfon), ruhoniyl ilm, olam kabi mazmunlarda ishlatganlar. Ahmad Yassaviy murshidining o‘gitlarini xotirlab:

Ayo nodon ma’no bul, deb aytdi bildim,

Ondin so‘ngra cho‘llar kezib Haqni suydim
deganida haqoyiqi ilohiy va ma’rifati ruhoniyni nazarda tutgan. “Ma’no”ning asosiy sifati – uni to‘liq kashf aylash va ochiq - oydin ifodalash mumkin bo‘lmagan bir tilsim ekanligidadir. Zero, chin oshiq'larga ko‘ra “Ma’noni bildim degan - bilmas”. Tasavvufiy maslakda, ma’noning ziddi – da’vo erur. Da’vo – quruq, zohiriy va ildizsiz bilim – haqiqatdan yiroq bir iddao. Shu bois boshqa bir haqparast shoir demish:

Bizga diydor kerak, dunyo kerakmas,
Bizga ma’no kerak, da’vo kerakmas.

Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek she‘riyatida da’vodan kechib “ma’noga” yuz burish jarayoni boshlandi. Hali tanqidchilik bu jarayon bilan qiziqqani ham yo‘q.

Lekin mavjud tajribalar yaqin kelajakda mustaqillik davri she'riyati bilan mumtoz she'riyatimiz o'rtasida irfoniy va ruhoniyl bir yaqinlik paydo bo'lishidan dalolat berib turibdi. Bu quruq gap emas, balki yuzlab misollar bilan isbotlanadigan haqiqat. Shunday she'rlarning sara namunalari Usmon Azimning "Saylanma"sida ham mavjud. U bir she'rning oxirida yozgan:

Hamma o'yim oqdir, bor baxtim – qora,
Faqat ishqim pokdir, faqat dil – gado.
Yo Alloh! Ishqingning umidi aro,
Oyoqqa ilashgan loyday sarsonman.

Najot ana shu umidvorlikda. Dil quvonchi ana shu sarsonlikda. She'r yozmoq Usmon Azimga kasbmas – qismat. Usmon Azim aksariyat she'rlarida lirik qahramonning ruhiyl holatini qabariql holda tasvirlash uchun tabiat manzaralarining turfa tovlanishlarini ham qalamga oladi, tabiat va inson o'rtasidagi mutanosiblik, dardkashlik yoki hamqismatlilik kabi tuyg'ular teranlashishi kuzatiladi. Ayni shu tasviriyl ifodalar o'laroql lirik kechinma tabiati hissiyotlar po'rtanasida yuzaga kelgan shoir ruhiyatining muayyan bir vaqtdagi harakatga kelishi bilan jonli obrazlilik kasb etadi. Jumladan shoirning "Vidolashuv" nomli she'rida aynan shunday go'zal ifodani ko'rishimiz mumkin.

Maysa, rahmat
o'sishni eslatib turding
Qush, rahmat
uchishni eslatib turding
Osmon, rahmat
yuksaklikka chorlading
Ijod, rahmat
yuraklikka chorlading.

Ijodkorning bu she'rini insoniyatning tug'ilishidan o'limga qadar bosib o'tgan taqdir yo'li deb atash mumkin. Chunki she'r maysaning unishidan, yashillanishidan boshlanib lirik qahramonning o'limni esga olishi bilan

tugaydi. Bunda maysadan yashashni,yasharishni o'rgangan lirik qahramon qushdan uchishni,yuksaklarga parvoz etmoqlikni o'rganadi. Shoir bu tasviriy ifoda orqali insonning dunyoga kelishini maysaning unib chiqishiga qiyos etsa uning kelajakda yutuqlarga erishishini osmonda parvoz etayotgan qushga mengzaydi. Shu o'rinda parvoz uchun osmonning borligiga rahmat aytadi,bu fikrda chuqur falsafiylikni ilg'ash mumkin. Maysa unib chiqishi uchun zamin kerak,osmon bo'lmaganda qush qayoqqa parvoz etsin? Alloh yaratmasa insoniyat yaralarmidi? Lirik qahramon dunyoga keltirgani uchun mushtipar onasiga ham rahmat aytar ekan butun umri davomida hayotining mazmuniga aylangan va u bilan birga yashab kelgan ilhomiga,hayotiga,ko'ngliga hamroh bo'lgan sevgisiga minnatdorlik hissi qamrab oladi. O'tgan umrini eslash asnosida o'limga ko'ngan insonning iqrori ifoda etiladi:

Ona, rahmat

dunyomni mehr etding

Ilhom, rahmat

olamni sehr etding

Hayot, rahmat

azobga o'rgatding

Sevgi, rahmat

qanchalar so'ldirding

Umr, rahmat

o'limga ko'ndirding.

Savol tug'iladi,nima uchun o'limiga ko'ngan lirik qahramon umriga rahmat deydi. Buning sababi inson hamisha yashashga o'zida ishtiyoq sezadi, u hechqachon tiriklikdan to'ymagan. Ayni mana shu intilish o'zida jasorat topib o'limiga ko'ngani uchun lirik "men" mazmunli o'tgan umriga minnatdorchilik bildiradi go'yo. Usmon Azim o'z ijodidagi teranlikni,o'zgachalikni go'zal tashbehlarda, betakror obrazlarda ochib beradi. Maysa, qush, osmon, ijod, ona, ilhom, hayot, sevgi, umr tushunchalari bir - biridan ajratib bo'lmaydigan darajada bog'liqlik shoirning umri bularsiz hechdir.

Biz shoirning qaysi she'rini kuzatmaylik ularda yaxlit bir mazmun fikrning tub ildizi yotadi. Bu ildiz esa ruhoniyat falsafasi bilan chirmashib ketgan. Jumladan, Usmon Azimning quyidagi she'riga e'tibor qaratadigan bo'lsak :

Tovush ham yurak ham senga yetmagay

Magarkim, har onim sog'inchda chorlov

O'zinga oshkora so'z berdim tokay

Pinhon yong'inlarda qiynaydi olov?

Shoir U.Azimdagi yozish mahoratining tengsizligi uning o'tkir qalamida, yurak zarblarida va shijoatida she'r bo'lib yangraydi. Shoir she'rlarida bir qarashda garchi suyukli yorga murojaat qilayotgandek tasavvur uyg'otsa-da, sinchkovlik bilan tahlil qilinsa aslida u o'z - o'zi bilan suhbat qurayotganining guvohi bo'lish mumkin. Unsiz nigohlari bilan olisga – bir nuqtaga tikilib turib pichirlab gapirayotgan lirik qahramon ko'z oldingizda gavdalanadi.

Tovush ham yurak ham senga yetmagay

Magarkim, har onim sog'inchda chorlov.

Ushbu misralarda lirik qahramonning faqat o'ziga ma'lum, lekin boshqalar uchun noma'lum tovushlar va yurak dardlari ifoda etiladi. Har lahzasi sog'inchda, seviklisiga intilish, unga ichikish va chorlash bilan o'tayotgan lirik qahramon "o'z yog'iga o'zi qovuriladi". Shoir bu yonishni "Pinhon yong'in" deb ataydi. Sababi bu yonishini boshqalarning sezmasligidir. Muallifning yuqorida ilgari surayotgan fikrlari ijodkorning lirik falsafasi bag'oyat keng qamrovli ekanidan dalolat beradi. Shuningdek, shoir o'z tuyg'ularini, lirik kechinmani yuqori ta'sirchanlikda ifoda etish uchun turli obrazlardan foydalanadi. Jumladan, qaqnus, yomg'ir, suv, o't obrazlaridir.

Shu o'rinda "tovush" va "yurak" atamalariga izoh bersak. Tovush bu – ovoz, uni eshitish mumkin. Yurak so'zining kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning dastlabki nomlanishi "urak", "urib turuvchi" degan ma'nolarda kelgan. Insonning organizmlaridan biri sifatida bu so'z moddiylikdan holi emas. Ammo shoir bu o'rinda yurak so'zini dil, ko'ngil so'zlariga sinonim tarzda ishlatadi.

Ya'ni, yurak so'zi bu o'rinda ruhoniyyat bilan bog'liq deb qaralsa to'g'ri bo'ladi. Tovush va yurakning yorga yetolmasligi lirik qahramonning abadiy hijronda yashashiga ishoradir. Shuning uchun ham lirik qahramon

O'zimga oshkora o't berdim tokay

Pinhon yong'inlarda qiynaydi olov?

deya yozg'iradi.

Nima uchun shuncha iztiroblarga bardoshi yetgan lirik qahramon "pinhon yonishga" dosh berolmay o'z holini bu tarzda sharhlaydi? Sababi, mabodo insonning jismi yonib ketsa uning qiynog'i ruh tanani tark etgunichadir. Ruh yonsa-chi?! Ruh to'lg'onsa - chi?! Ruh iztirob olovida kulga aylanayotgan bo'lsa-chi?! Bu abadiylikka, umrboqiylikka dahldor emasmi? Axir ruh mangu, ruh o'lmasdir.

Demak, bu sog'inch gulxanida takror - takror yonish va yana parvona kabi o'zini olovga urish oshiqning yori oldidagi burchidir.

Yashirin gulxandan to'lg'onmoq nechun –

Go'zal yonishlarni yelga sovurish ?

Sen uchun yonmoqlik umrimning burchi –

Qara, nasib etdi sevgi – og'ir ish .

Bu "og'ir ish" ning lirik qahramonga nasib bo'lishi va bunday o'rtanish, ishq iztiroblari shirin bir to'lg'onish, go'zal bir yonishdir. Bu baxtning "og'ir" ligiga, bor mushkulligiga u shukur qiladi. She'ning keyingi bandida esa muallif emotsiyani yanada jozibador, nozik nuktadonlik bilan ochib beradi :

Alangam o'rtadi olti tarafni –

O'zga taraf yo'qdir otashdan tonsam.

Jonim, mening umrim Qaqnustalabli,

Qayta tiriladi sen uchun yonsam.

Alanganing olti tarafni o'rtashi haqiqatan ishonarli tasvir. Shoir psixologizmni yoritishda siyqa fikrlarni aytishdan o'zini tiyadi va o'quvchini quruq, yarqiroq so'zlar bilan aldamaydi. Olti tarafning o'rtanishi hech qayerga

sig'mayotgan lirik qahramonning ruhiy iztiroblari va yonishining eng yuqori cho'qqisidir. Sababi, uning o'ng - u so'lida, orqa - oldi, yerdan ko'kkacha, ehtimol, Arshga qadar yetgan bu o'rtanish, bu yonish.

Demak, o'zga joy yo'q. Shuning uchun ham lirik qahramonning bu yonishidan o'zga narsani tan olishga imkoni yo'q. U shu olov qurshovidadir. Mana shu o'tda yonib o'lib - tirilishini shoir Qaqnusga mengzaydi. Qaqnus – o'tda yonib, kul ichidan qayta tiriluvchi qushdir. Ijodkor she'ridagi lirik qahramon ham muhabbat, ishq olovida yonib qayta tiriluvchidir.

Ajib shovullaysan o'yimda...Mayin,
Yomg'irim, o'rin yo'q,axir qo'rquvga.
Tasalli bir so'zni oxir aytayin –
Ko'rishmoq yo'q emish o't bilan suvga .

Adabiyotshunos olim U.To'ychiev lirik qahramonning muhim belgilaridan biri sifatida "Lirik qahramon subyektivlik ("Men") saltanati shohidir" - ,deya e'tirof etgan edi. Darvoqe, lirik qahramon "Men" i bu – "ichkari" dir. Lirik qahramon ana shu "Men" bilan ruhiy ziddiyatlardan, isyonlardan keyin asta-sekinlik bilan qismatiga ko'nadi. O't bilan suvni zidlantirish vositasida oshiq va ma'shuqaning taqdiriga uchrashmoq yo'qligiga urg'u beradi. Zero, olovga suv sepsalar o'chadi, yo'q bo'ladi. Bu kabi go'zal ishoralar Usmon Azim qalamining o'tkirligidan dalolatdir.

Usmon Azim ijodida psixologizm boshqa ijodkorlar ijodidan farqli ravishda o'zgacha bir uslubda o'z ifodasini topgandir. Biz buni shoir she'rlarini mutolaa qilishda teran anglaymiz. Ijodkorning o'ziga xosligi shundaki, u har bir so'zga alohida bir mas'uliyat yuklaydi va u qo'llagan so'zni olib tashlash yoki o'zgartirish mumkin emas. So'zning zalvori Shunchalikki shoir qalbi she'r bilan omuxta, bir butundir. She'r ko'ngil ishi ekan, unda ruhiyatning aks etishi tabiiy bir holdir. Boisi she'r bu – ruhiyatdir . Agar uni boshqacha nom bilan atash mumkin bo'lganda u she'r bo'lmasdi, u ijod deb nomlanmas edi. Shoir she'r yozar ekan atrofidagi voqeliklarning bevosita ta'siri natijasida ko'ngil

kengliklarida cheksiz bir to‘lqinning shiddatlanishi natijasida ruhiyatida tubsiz o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Bu to‘lqinlanish, bu “Qo‘zg‘alishga” ba‘zan daraxtdan chirt uzilgan barg yoki maysalarga singib ketayotgan tomchi yomg‘ir ham sabab bo‘lishi mumkin.

Shoir she‘r yozar ekan u moddiy borliqni, butun olamni unutgan bir alfozda butun vujudi bilan she‘rga singiydi. Faqat ruh qoladi, balki aynan mana shunday lahzalarni shoir ilohiy ishq bilan uyg‘unlikda, farishtalar bazmida o‘tkazsa ne ajab?! Odamzod mavhumiyatlarga ko‘p – da tushunavermaydi va u bilmagan sinoatlar ko‘p. Shuningdek, insonning mavjudiyati Shu moddiy borliq bilan ekan uni bu mavjudliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Shu boisdan ijod ahli ham ruhiy kechinmalarni tasvirlashda moddiy borliqqa asoslanadi. Usmon Azimda ham shunday, u she‘r yozar ekan qahramonning lirik kechinmalarini, psixologizmi va intim tuyg‘ularini kitobxonga yuqumli qilib yetkazishda ba‘zan peyzaj, ba‘zan oddiy detallardan yoki boshqa vositalardan foydalanadi. Ba‘zan esa shoirning hatto o‘zi anglab – anglamagan tuyg‘ular, ruhiy kechinmalar qog‘ozga tushadi. Bu haqda shoirning o‘zi shunday degan edi :

“Odatdagiday, g‘ira – shira mavzudan nimadir meni yetaklab ketmoqda. Qayerga boraman, navbatdagi satrda qayerga burilaman, yolg‘iz Allohga ayon. faqat yozayapman...

Yetmoq og‘irlashar yuraging teran,
Unga cho‘kib ketar zirqirab jisming.
Gaplasha boshlaysan samovot bilan,

Nimani gaplashaman? Nimani ? Nogoh satr paydo bo‘la boshlaydi: “Tilinga keladi og‘ir so‘z...” Bu og‘ir so‘z nega keldi? Qayerdan keldi? Nima uchun u “og‘ir” so‘z? Hayajonda tipirchilayotgan ruhim har tarafga o‘zini urib, lahzada paydo bo‘layotgan savollarga munosib javob izlaydi .va bir zum o‘tmasdan allaqaydan besharpa uchib kelgan so‘zning shakli miyamga uriladi. Men uni o‘qib ulguraman: “Bismil...”

Men bu soʻzni hechqachon ishlatmaganman va hatto nimani anglatishini ham bilmayman. Ammo uning oʻrni ushbu sheʼrning aynan Shu joyida ekanligini aniq his qilaman. Endi toʻrtlik quyidagi koʻrinish oladi:

Yetmoq ogʻirlashar – yuraging teran,
Unga choʻkib ketar zirqirab jisming
Gaplasha boshlaysan samovot bilan –
Tilingga keladi ogʻir soʻz :
“Bismil...”

Koʻrib turganimizdek shoir sheʼr yozish jarayonida ruhiyatida ming turli talotoʻplar, hissiy kechinmalar roʻy beradi. Umuman olib qaraganda ruhning ildizi bittadir, bunga hazrat Rumiyning fikrlari ham yaqqol dalil boʻla oladi. Ruh va jism ziddiyati haqida esa U. Azim quyidagilarni yozgan edi : “Bechoralik – bu dunyoning eng ulkan fojeasidir...Qorin (tirikchilik,jism) tashvishlari va ruh urinishlari oʻrtasidagi qarama – qarshilik – ogʻir musibat. Juda uzun, tinkani quritadigan hasrat”. Inson ruhi shundayki, u xiyol burilishni ham tez ilgʻaydi, faqat bu oʻzgarishni mudroq aql sezmay qoladi xolos. Ruhda esa sezimlar kuchli. Qanday fikr yoki gʻoya ilgari surilishidan qatʼiy nazar, sheʼr – holat, kayfiyat, ruhoniyyat suvratlaridir.

Xususan, ruhiy idrok va ruhiy anglash mayllari aks etmagan sheʼrning quruq va yalangʻochligiga toqat qilish qiyin. Usmon Azim bu haqiqatni chuqur anglaydi, darvoqe, Ibrohim Haqqul aytib oʻtganidek “Usmon Azim sheʼrlarida boshdan oxir ruh yashaydi, yashaganda ham zalvori ogʻir, hazin ruh bor sheʼrlarida¹⁷”. Uning “Ruhga koʻchdim – tanim qolmadi” deyishi ham Shu haqiqatning eʼtirofidir. Imom Gʻazzoliyning taʼriflashicha, “Ruh insondagi idrok qiluvchi va biluvchi latiflikdir”. Ijodkorning oldingi hamma sheʼrlarida ranglar jilvasi tobora teranlashib, ayni shu latiflikning miqyosi kengayib, mohiyati ulkanlashmoqda. Uning ijodiy oʻsishi faqat fikr – qarashlarida kuchli siljish sodir boʻlganligini bilish maʼnosida emas, balki uning sheʼriyatida sifat oʻzgarishi hosil boʻlganligini bilish maʼnosida ham

¹⁷I.Haqqul. Gʻussali yurak – yolqinli yurak. www.ziyo.uz .

e'tiborga molik hisoblanadi. Shuning uchun ham u yaratgan har bir ijod mahsuli, she'rlari, dostonlari yorqin tuyg'ularga, ifodalarga boyligi, jo'shqin va jozibadorligi bilan o'quvchini hayajonga soladi.

G'am etdi dil xilvatlariga,

Yolg'onlarning shu'lasini so'ndi –

deydi shoir. Yolg'onning rangi voqelikning qiyofasini o'zgartiradi.

Yolg'onlarning shu'lasini dunyo ishlari va inson qismatiga to'g'ri nazar ila qarashga imkon bermaydi. Yolg'on, shodlik va quvonchning ko'p zulmlari borligini bilishga yo'l qo'ymaydi. Balki u shuning uchun ham boshqa bir she'rida “Do'stlar, iliq yolg'on haydang – kuzga chiqsin qalbingiz” deya “zarif g'ussa jomidan” sipqorishga da'vat etgandir. Agar shoir basiratni gohida nimanidir aniq ko'rish yoki dunyoning murakkab haqiqatlarini to'g'ri va teran o'zlashtirishni xohlasa, uning aqli har turli o'tkinchi da'volardan keraksiz bahs – u munozara qo'zg'ovchi hissiyotlar, shaytoniy mayl va soxta talablardan forig' bo'lib, mutlaq xotirjamlikka yetishmog'i shart. Usmon Azimning bir qator she'rlari shunday xotirjamlik va ruhni yorishtiruvchi sokinlik shavqidan tug'ilgan. U tazarru bog'lariga yuz burarkan, qalb hayotidagi o'zgarishlar va tushunchalaridagi evrilishlarni ham she'rda mohirlik bilan aks ettiradi.

Kechirgin erk uchun talashganimni ,

Va erk senligingni bilmaganim - chun.

Bu fikr tangriga iltijo va ayni paytda u erk uchun talashmoq, erksizlikning ayni o'zi ekanligini anglagan, bandasidan erk – u ozodlik kutish besamar ish ekanligini aniq bilgan yurak iqrori erur. Darhaqiqat, Ko'ngil uchun Haq ishqidan ortiq va bepoyon hurriyat yo'q. Eng so'nggi najot ham insonni abadiyat saltanati

Alloh dargohida chorlovchi shu ishqdir.

Ishq sendadir eng so'nggi najot,

Uzat, toza dastingni uzat –

Sen yo'q joyda g'aribdir hayot,

Sen yo'q joyda kishandir uzlat.

Haqiqiy shoirning ruh va fikr maqomi o'ziga xos, doimo yuksak bo'ladi. Bu o'ziga xoslik va yuksaklikning muhim bir jihati – olomonni qiziqtiruvchi, olomonga maqbul bo'luvchi fikr va tuyg'ulardan shoir qalbining poklanishidir.

Aks holatlarda shoir olomonning ortidan ergashib yurmasa-da, o'zi xoh istasin, xoh istamasin, olomon kuychisiga aylanib qolaveradi. San'at zavqqi-la qalam tebratadigan shoirni olomon tushunmaydi. Tushunmagach, uning asarlarini to'g'ri qabul eta olmaydi. Shoir bundan hech nima yutqizmaydi, balki o'zini so'qirlik va qo'pollikdan o'zini - o'zi muhofaza qilishni go'yo sir saqlashga xizmat etadi. Sirga etish, go'zallik sirlarini kashf aylashni esa g'ofil va jo'nlik olomonga hamisha engillik beradi. Shuning uchun u o'z shoiri yoki yozuvchisini qo'llab – quvvatlash va ilhomlantirishda bag'oyat tashabbuskor.

Ruh erkinligi insonni davr va zamonning har qanday xavf – xatarlaridan muhofaza eta oladi, ruhan va qalban ozod shaxs – yengish qobiliyati shakllangan shaxs. Uning tik qomatini fitna va bo'hton, jaholat va zulm to'fonlari buka olmaydi. Hasad va g'azab toshlarini u nokaslik va ojizlikning bir "tuhfa" si sifatida qabul qiladi. "Qiynoq, senga bo'lsin sharaf!" Ushbu satrlar ijodkorning hayot a'moli, she'riyatining bosh mayog'idek tasavvurni barqaror qildi. Haqiqatan ham kech – kuzak ko'hna adabiyotimiz, she'riyatimiz bag'rida otayotgan tong misol navqiron she'riy nafas paydo bo'layotgan edi. "Tabiatda ko'rilganidek charog'on yulduz, ya'ni, she'r ustozlari fonuslaridan yorug'roq, ularni o'chirmoqqa, o'zinikini tasdiq etmoqqa qodir sarkash ruh yal – yal yonib paydo bo'layotgan shafaq kabi qizg'in, otash nafasi ila kirib kelayotgan edi"¹⁸. Yomg'ir – Usmon Azimning sevimli obrazlaridan. Shu sababdan bo'lsa kerak shoir ushbu obrazni o'zgacha bir kayfiyat bilan go'zal tarzda ifoda etadi:

Yomg'irli kechada falakka uchdim,
Shamollar yuzimga yopishdi ivib.
Yulduzlar armonli shivirga tushdi,

¹⁸Шухрат Ризо. Қийноқ сенга бўлсин шараф. www.ziyo.uz.

Yomg'irning hidi - ku, yomg'irning hidi.

Mana shunday oddiy so'zga maftun eta olish, bu sayohat orzu – yu armonlarga chulg'anib kishini koinotga olib chiqsa – bu haqiqiy mushohada va taassurotdan iborat ohangdor so'z bo'ladi. Yangi ruhdagi ajoyib she'rga aylanadi. Shuningdek, shoir “Yoshlik” she'rida yozishicha, “Sevgi qayg'u, falokat emas, u yam – yashil o'tloq va baxmalsimon orzular” sirasiga kiradi.

Yana bir jihat, shoirning o'zi e'tirof etishicha, u she'rlarida “uzoq bir ishqning sharhini” beradiki, bu “uzoqlik” zamiridagi ishq ilohiymi yoxud realmi, majoziy, buni aniq his etish mushkul. U. Azimning she'riyatiga sinchkov nazar tashlasak uning “uzoq” ishq iloh ishq bo'lib, hayotdagi mahbubaning vasliga etish mashaqqatlari hajridir.

Shu tariqa U. Azim ijodidagi muhabbat hayotga muhabbat va inson sevgisi bo'lib, u orzular va samimiy hissiyot bilan ifoda etiladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, zamonaviy she'riyatda nafis ohang va tuyg'ular taassuroti boshqacha shaklda namoyon bo'ladi. Endilikda shoirlar she'rlarini o'quvchining estetik didi, saviyasi, orzu-istagi va dil izhorini hisobga olgan holda, shabadadek mayin, shabnam kabi taru toza, guldek nazokatga boy shaklda oro berib taqdim etadi.

O'quvchi she'r o'qiganida xayolot bilan chulg'angan orzu – armonlarga g'arq bo'ladi va nafosat dunyosiga sho'ng'iydi. U she'rdagi so'zlar haroratidan, go'zalligidan, balki so'z emas dilkash ohangidan masrurlik his etadi. Usmon Azim nozik hissiyot bilan yozadi, she'rni mayin navo, ta'sirchan tuyg'u va yurakdan joy oladigan muhabbat deb biladi. Shoir she'rlari hayot kabi go'zallik nashidasidan sarchashma olgan tuyg'u va ayni paytda, metin kabi mustahkam nidolardir. Har bir she'ri yaxlit shaklga ega va ularni sinchiklab o'rganish natijasida ijodkorning badiiy mahoratini ilg'ab olish qiyin emas. So'zlarida bir sohirlik mavjud, ularni o'qib ixtiyorsiz ravishda tuyg'ularni o'z holiga qo'yasiz, ko'ngilni erkin qush kabi ozod etasiz barcha qafaslardan. Davomli iliq qissa tinglaganday shirin orzularga berilasiz. Ijodkorning didi, badiiy taxayyulotidan ta'sirlanasiz. Tuyg'ular junbushga keladi, ko'ngil tubida cho'kib yotgan hislar

“qo‘zg‘aladi” , “chayqaladi”, “toshadi”. Biz tahlilga tortgan she‘rlar ham Shunday xususiyatlarni o‘zida ifoda etadi va ular quyidagi to‘plamlarda aks etgan

Hechkim bilan ishim yo‘q

Bir o‘zim yashayapman,

Dunyodan kengligini sezdim yuragimning. Men uni bir tomchi

yoshimga jo etolsaydim....

Bu dunyoning chegarasini faqat ko‘zyosh buza olar. Cheksizlikdan nari

Olmosday yaraqlaganda Tangrim jirkanmaydi undan.Tangrim jiddiy

boqar unga

Tangrim o‘z zarrasiga qaraganday unga qaraydi .

Hechnarsa qilganim yo‘q edi,

Faqat

Dunyoni aldayotganlarini ko‘rib qoldim.

Faqat

“Dunyoni aldamang” dedim Shunda men

Shunda meni yomon ko‘rib qoldi

Aldanayotgan dunyo.

Shunda ham uni yaxshi ko‘raverdim

men .

Usmon Azim ushbu she‘rida ruhiy iztiroblarni qabariq holatda tasvirlaydi, she‘rda muallif “Men” i ustunlik qiladi. Qaysidir ma’noda shoir shaxsiyatining chizgilari qirrador tarzda ifoda etiladi. Dunyoning aldanayotganini ko‘rgan lirik qahramon chuqur iztirobga tushadi,qiynaladi. Uning yuragidagi nido “Dunyoni aldamang” degan shaklda tashqarida o‘zini namoyon etadi. She‘r qisqa va lo‘nda, uning mazmun – mohiyati esa nihoyatda kengdir. “ Hechnarsa qilganim yo‘q edi...” degan misra she‘rning boshlanishi ya’ni, u fikrning, tuyg‘uning ilk namoyon bo‘la boshlashi deyish mumkin. “Dunyoni aldayotganlarini ko‘rib qolishi” tugun bo‘lib kelgan bo‘lsa, ijodkorning endilikda sezimlari, ruhiyatidagi nozik kechmishlar zo‘riqa boshlaydi, shoir bu g‘amga, bu iztirobga chidolmaydi. U

bunga ko'nikolmaydi va "Dunyoni aldamang" deya hayqiradi. Bu konfliktdir. "Dunyo uni yomon ko'rib qoladi" ,bu esa voqealar rivoj topib borishi desak "Shunda ham uning dunyoni yaxshi ko'raverishi" yechim sifatida namoyon bo'ladi. Guvohi bo'lganimizdek bu she'rni kichik asar deyish mumkin. Dunyo tegirmonida beto'xtov yanchilgan lirik qahramonning yana Shu dunyoni yaxshi ko'rishga yurak topa olishi, ichki qarama - qarshilik,konfliktlarni eng bilishi ulkan bir jasoratdir. Insonning bu dunyoda hamisha tashvishlarga ko'milib yashashi bor gap. U qancha tirishmasin umrining oxiriga qadar kurashib yashashga mahkum.

Bu kurashlar gohida odam va olam, gohida odam va odam o'rtasida Shuningdek, insonning o'z - o'zi bilan kurashuvi tarzida namoyon bo'ladi. Shoir tuyg'ulari butun bir yer yuzida yashayotgan yashaganda ham dunyoni aldab yashayotgan odamlarga hayqiriq bo'lib yangraydi. "Dunyoni aldamang !" deya nido qilayotgan lirik qahramon bunda iztiroblar, so'ngsiz qiynoqdan o'zini qo'yarga joy topolmaydi, aynan mana shu holat natijasida u o'zini - o'zi tahlil qilishga kirishadi. "Hech narsa qilganim yo'q edi" u holda nechun bunday ruhiy qiynoqdaman degan og'ir bir savol uni iskanjaga oladi, ayni shu vaziyat ruhiy konfliktdir. Nima uchun dunyo uni yomon ko'rib qoldi? Axir u "Dunyoni aldamang" degan edi xolos. Axir u dunyoga hech bir yomonlik tilamagan edi - ku. Aslida uni yomon ko'rib qolgan u yashayotgan dunyomidi yoki undagi odamlar? Ehtimol, she'rdagi lirik qahramon o'zi yashab turgan muhitga, borliqqa sig'may qolayotgan bir shaxs fojeasini o'zida ifoda etgandir.

Savol tug'iladi: nima uchun boshqalarday dunyoni aldab yashayvermadi u ham ? Sababi aynan bu lirik qahramon yaxshi fazilatli, vijdonli kishilarning, ko'ngli pok odamlarning umumlashma obrazi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu insoniy tuyg'ular, sifatlar individuallik xususiyatiga ega emas, balki aksinchadir. Zero, she'riyat, umuman ijod yakka shaxsning dard – u kechinmalarini emas umuminsoniy tuyg'ularni kuylaydi va qadrlaydi. Shoir U. Azim ijodida bu xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi Shuning uchun ham uning ijodi ko'pchilikka tatiydi. Hatto ma'lum bir shaxsning ko'ngil kechinmalarini

tasvirlaganda ham u qalamga olayotgan tuyg‘ular tasviri hammamiz uchun tanish,qadrdon hisoblanadi. Xususan ,uning “Siz yoqqansiz menga” nomli she’ri bu fikrimizning isbotidir.

Siz yoqqansiz menga hamisha,
Faqat buni etmovdim oshkor.
O‘ylovdimki yurak topishar,
Bizdan ketgach sabr - u ixtiyor.
O, men sizni qanchalar kutdim –
Mana – oqsoch, mana – bu ajin.
Kunlarimni tortqilab yutdi
Shum yolg‘izlik – farishta g‘ajir.
Ortingizdan ketishim mumkin
Yo‘l tugasa yo‘lsiz tentirab
Ammo ayting yig‘laysiz nechun
Manglayingiz devorga tirab ?
Yo‘q, hech sizga etmasin ozor,
Tushunaman – yillar, andisha...
Faqat sizga aytmovdim oshkor –
Siz yoqqansiz menga hamisha .

Usmon Azim ijodida qalb,ko‘ngil da’vati, unga quloq tutish va amriga bo‘ysunish birlamchidir. Qalbning turli ranglarda jilvalanishi shoirga ilhom baxsh etib sururga to‘ldiradi. “Qalb” so‘zi arabcha “aylanuvchi,o‘zgarib turuvchi” degan ma’noni bildiradi. Qalbning bu aylanishi ehtimol shoir hissiyotlarini jumbushga keltirib, to‘lqinlantirar, bu esa o‘quvchining qalb haroratini oshirsa ne ajab?! Xuddi shunday haroratli misralar ijodkorning “Siz yoqqansiz menga” nomli she’rida yaqqol ifodasini topgan. Yuragiga muhabbat in qurgan lirik qahramon o‘z sevgisini oshkor etmagan, sababi u bir kun kelib sevishgan qalblar topishadi deya xayol qilgan edi.

Chunki, qalbida muhabbat olovi yoniq bo'lgan inson o'z inon – ixtiyorini ko'ngilga topshiradi. Shuning uchun ham u ko'ngil qulidir. Sevgan yorini yillab kutgan oshiq o'ziga razm solar ekan sochlaridagi oqni ko'rib, umrining hijronda o'tganiga noiloj iqrar bo'ladi. Yuzlaridagi ajin esa go'yoki uning taqdir yo'lidan mashuqasining yo'llariga teskari tarzda tortilgan chiziq edi. Bu iztiroblar, sevikli kishisidan ayro yashagan odamning g'amlariga o'zingiz bilmagan holda sherik bo'lasiz, hamdard bo'lib qolasiz. Usmon Azim she'rlaridagi obraz va topilmalar badiiy tasvirning jism joni va vujudiga aylangan. Ya'ni, shoir she'rida tasvir san'ati kuchli. U nimani tasvirga tushirsa xuddi rassomdek unga jon, joziba va kuch – quvvat baxsh etadi. Uning tasvirlari she'riy portretga o'xshaydi, u lirik qahramon yuragini mohirlik bilan harirga o'rab, unga shoirona rang berib, sifatlaydi. Natijada, obrazlar birin – ketin harakatga tushib, tasvir qudratli bir timsolga aylanib, yurak degan tushuncha yaxlit bir kuchga do'nadi va butun hazrati insonga tatimli bir go'zallik yaraladi. Lirik qahramon yo'l tugasa yo'lsiz tentib sevikli yorining ortidan borishga tayyor, lekin shuncha sevgi va xokisorlikdan keyin ham nima uchun buncha xo'rsiniq, nega peshonasini devorga tirab yig'lamoq? U shunchalik o'zini past tutadiki, yoriga ozor etmasin deydi. Hamisha yaxshi ko'rish, umrining oxirigacha muhabbatiga sodiq qolish haqiqiy oshiqning holati desak mubolag'a bo'lmaydi. Muhabbat shunchalar pokiza tuyg'uki, unda hechqanday ta'ma, gina, g'araz yo'q. Sevikli yor manglayini devorga tirab o'ksib - o'ksib yig'laydi, bu konflikt o'quvchini befarq qoldirmaydi. Bu yig'i ,bu o'rtanish necha tun – kunlarni hijron azobida o'tkazgani uchun yurakning o'tli ohi, nidosi emasmikin? Nima uchun oshiq sevishini mahbubasiga oshkor etolmadi ekan, nega o'zini bunday iztirobga mahkum etdi?! Sevgining qudrati shunchalik kuchlimidiki oshiqning tilini bog'ladi, uni gung qilib qo'ydi. Axir u o'z yori uchun dunyoning narigi chekkasiga ham borishga rozi edi. Ko'ngil shu darajada g'amgusor bo'ldiki, dunyodagi hammanarsa uning uchun hechga aylandi.

U. Azimning she'rlarini bir – biridan butunlay ajratib tashlolmaymiz, chunki ularning barchasini birlashtiruvchi Shunday kishi bilmas “nimadir” borki bir she'r

boshqasining mantiqiy davomiday tuyuladi. “Yomg‘ir. Bekat” she‘riga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak ham Shu xususiyatni kuzatamiz. Ushbu she‘rda endi lirik qahramonlar zabonsiz, tilsiz sukunatda sevadilar. Jimjit so‘zlashadilar.

Yomg‘ir.

Bekat.

Erkakning egnida yomg‘irpo‘sh

Ayolning ko‘ylagi badaniga yopishgan.

(Oltmishinchi avtobus to‘xtab o‘tadi)

“Sovuq qotdi, - o‘ylaydi erkak, -

Yomg‘irpo‘shni yelkasiga tashlasam

Xafa bo‘lmasmikin?”

(Oltmishinchi avtobus to‘xtab o‘tadi)

“Chiroyli ekan, - o‘ylaydi erkak, -

Yoshi ham o‘ttizdan oshmagan.

Qani edi, shunday xotining xotini bo‘lsa...”

(Oltmishinchi avtobus to‘xtab o‘tadi).

“Balki u taqdirimdir, - o‘ylaydi erkak, -

Ammo yomg‘irpo‘shni yelkasiga tashlasam

Otib yubormasmikan ?

Baribir ayol - da .

Chiroyli bo‘lsa ham...”

(Oltmishinchi avtobus olib ketadi ayolni).

Uf tortadi erkak.

(Uyida ivigan kiyimlarini

Yana o‘zi

xo‘rsinib yechadi ayol) .

Usmon Azimning sevimli obrazi yomg‘ir deb aytgan edik, yuqoridagi she‘r buning ayni isbotidir. Yomg‘ir obrazi she‘rda mahzunlik, hazinlikka to‘la bir holatda ifoda etiladi. O‘zi yomg‘ir ko‘z oldimizga kelishi bilan ruhiyatimizda

qandaydir sokinlik gavdalanadi. Bekatda avtobus(Oltmishinchi avtobus) kutayotgan ayol avtobusga chiqmay o'tkazib yuboradi. U avtobusni emas, balki baxtini kutayotganini esa biz she'r oxirida sezib qolamiz.

Ushbu she'r voqeaband she'r hisoblanib, undagi avtobus, yomg'ir, bekat, yomg'irpo'sh obrazlari lirik qahramon ruhiyati, kechinmalarini yorqin ochib beradi. Bekatdagi erkak va ayolning muhabbatga, mehrga tashna qalblari juda mohirlik bilan tasvirlangan. Erkak ayolni uchratar ekan unga bir og'iz so'z aytish tugul yomg'irpo'shini berishga iymnadi. Bunga botinolmaydi, ayol esa oltmishinchi avtobusga chiqmay o'tkazib yuboradi. U ham erkakning yoniga kelib elkasiga yomg'irpo'shini tashlashini xohlaydi. She'rdagi ayol va erkak obrazlarining yoshi uncha kichik bo'lmaganligini biz "yoshi ham o'ttizdan oshmagan" degan misradan bilib olamiz. Erkakning o'zida jur'at topolmasligiga sabab "Yomg'irpo'shni otib yubormasmikin?" degan andishaga boradi. Kitobxon mutolaaga kirishar ekan, oxirida ayolning ham yolg'iz ekanidan, uning ivigan ko'ylaklari ustidan yelkasiga yomg'irpo'sh tashlaydigan insoni yo'qligidan ko'ngli iztirobga tushadi. Ayol bilan birga qiynaladi, xo'rsinadi. Oltmishinchi avtobus ayolni olib ketgach, ayolning ketmasligini xohlagan erkak og'ir "Uf" tortadi. Bu dard to'la "Uf" ning tagida horg'inlik, hasrat, afsus yashirin edi. Har ikkala obrazning bu kayfiyati, yolg'izligi ularni ezib qo'ygan edi.

U. Azimning bu she'rida kuchli iztirob, hissiyotlar silsilasi sezilib turadi. Inson shunday tabiatga egaki, u o'zini ba'zan nima uchundir qo'yarga joy topolmaydi. Bu bezovtalik ba'zan shodlikdan, ba'zida esa g'am - u iztirobdan yuzaga keladi. Zero, shoir aytganidek, ba'zan daryo kabi to'lib toshadi, ba'zan tuproqday xokisor kimsaga aylanadi. Ba'zan olovday yonsa, ba'zan kul bosgan cho'g'day so'nadi. Lirik kechinmalar hissiyotlar po'rtanasida yuzaga kelgan shoir ruhining muayyan bir vaqtdagi harakati, obrazli tasvir orqali reallashganini aynan shu she'r misolida ham kuzatish mumkin. U. Azim ruhoniyyat kuychisi.

Shoir she'rlarini kitobxonga shunchaki emas, balki muhabbatga, hayratga, g'ussaga o'rab beradi. Ijodkorning she'rlaridagi lirik qahramonning kayfiyati ruhni

cho'ktirmaydi, dardga yo'g'rilgan bo'lsa - da, hatto har bitta misrada iztirobning zalvori sezilsa - da o'quvchi o'sha dardning totini teran anglaydi.

Xalq ohangida she'rlar yaratish uslubiga ko'ra Azim Suyun ijodi Usmon Azim she'riyati bilan hamohangdir. Lekin bunday yaqinlik har ikkala shoirning o'z uslubi - o'z yo'li borligiga shubha tug'dirmaydi. Usmon Azim xalq ohanglari yo'lida "Baxshiyona" turkumini yaratdi. Bunday deyishimizga sabab tilning xalqonaligidir. Nasriy va nazmiy shaklda yaratilgan bu asar o'z qurilishiga ko'ra bizga xalq dostonlarini eslatadi. Nasriy parchalarda ham saj' san'ati yetakchi o'rinni tashkil etadi. «Baxshiyona» nomi bilan turkum she'rlar e'lon qildi. Shoirning bu turkumlaridagi tasvirlar xalq dostonlariga hamohang bo'lib, ular elbek baxshi tilidan hikoya qilinadi. Baxshilar obrazini yaratish va ular tilidan davr ziddiyatlarini ifodalash usuli Usmon Azim ijodida 70 -yillardanoq ko'rinadi. Jumladan, uning "Mamatrayim baxshining bir davrada aytgani" (1979) she'ri shunday xususiyatga ega. Bu she'rda ishi ketgan bir puldorga omadi chopmagan boshqa bir odamning bo'yin egishi tasvirlanar ekan, shoir bevosita har qanday jamiyatda bo'lishi mumkin illatlarni fosh etgan. Shoir baxshi tilidan shunday yozgan:

Puldorning oyog'i mudom yarqirar,
Bulutsiz umridan beg'am nishona,
Unga duch kelganda, ayyor bolalar,
Girdida bo'lasiz darrov parvona¹⁹

Ushbu misralar garchi Mamatrayim baxshining tilidan aytilgan bo'lsa-da, she'rdagi tasvirni chinakamiga baxshiyona yo'l bilan yozilgan deb bo'lmaydi. Chunki tasvir Usmon Azimning barmoq vaznida yozilgan boshqa she'rlaridan deyarli farq qilmaydi. Faqat shoirning niyati, baxshilar ohangiga o'zini yaqin tutishi uning kelgusida Shu maqsad yo'lida yoziladigan asarlariga bir kirish bo'ldi, deb hisoblash mumkin, xolos. Zotan, «Baxshiyona» turkumidagi she'rlar shakl

¹⁹Азимов У. Оқибат. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 39-бет.

jihatidan ham xalq baxshilari yaratgan dostonlarga yaqin. Shoir folklor an'anasiga rioya qilgan holda voqelikni nasriy va nazmiy parchalar orqali ifodalaydi. Biz nasriy tasvirda xalq dostonlariga xos ichki qofiyalanish tizimini, she'riy parchalarda esa xalqona til va she'riy nutqni ko'ramiz: «Elomon ko'p aytdi, emranib turib xo'p aytdi, jo'shibaytdi, shoir-da, ba'zan qo'shib aytdi. Shunda elbek baxshi: "O', bolam! O' shoirlikda men etmagan nolam baxshi to'liqib qolibsan, ilhom deganiga yo'liqib qolibsan, endi senga oxirgi nasihatim shudir", deb ko'ksidan qo'zg'olgan elga soqoli pirillab, ovozi chaqmoqday gurillab, bir so'z deb turgan ekan:

Ustozim deganing she'rfurush chiqsa,
Suyganim deganing erfurush chiqsa,
Podshohim deganing elfurush chiqsa,
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin,
Chidagin, bolam - a, chidagin,
Ohlaring qo'shiqqa aylansin!²⁰

Nasr va nazmda bitilgan bu parchalarning baxshiyona ruhini hosil qiladigan omil ulaming ohangida. nasriy parchadagi "ko'p aytdi", "xo'p aytdi", "jo'shib aytdi", "qo'shib aytdi", "O' bolam", "yetmagan nolam", "to'liqib qolibsan", "yo'liqib qolibsan" kabi ohangdosh birikmalar xalq dostonlariga hamohang tarzda jaranglaydi. Yoki she'riy parchadagi "Chidagin, bolam-a, chidagin" degan ritorik murojaatning qaytariq holatda kelishi xalqona ohangning kuchayishiga olib keladi.

²⁰Азимов У. Сурат парчалари. Шеърлар ва дoston. – Т.: «Ёш гвардия», 1986. 42-б.

XULOSA

Baxshiyona ohanglar Usmon Azim ijodida uslubiy jilvalardan she'riy turkum darajasiga ko'tarila bordi. Uning "Baxshiyona" kitobida (1990) Elbek baxshining mukammal obrazi yaratilganiga ko'ra "Baxshiyona" she'rlar turkumini hatto o'ziga xos doston, deb atash mumkin. Biz yuqorida Usmon Azimning baxshiyona ohanglarga murojaat etishining tub sababini u tug'ilgan yurtida baxshilar an'alarining mavjudligi bilan bog'lagan edik. Iste'dodli shoir Mirzo Kenjabek Usmon Azim ijodida baxshiyona ohanglarning paydo bo'lishini yana bir manba bilan izohlaydi. Usmon Azim ijodidagi baxshiyona ohanglar deganimizda, uning avvalo, shu davrdagi ijodi ko'z oldimizga keladi. Baxshiyona ohanglarning adabiyotimizga kirib kelish tarixiga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, so'zim, avvalo, Mirtemir, H.Olimjon ijodlaridagi xalq ohanglaridan boshlamoq joiz.

Usmon Azimning yangicha ovozi, avvalo, uning yangicha badiiy tafakkurga egaligi bilan izohlanadi.

Ijodkorning adabiyotdagi o'ziga xos o'rnini belgilovchi bu xususiyat asosan ikki muhim jihat bilan izohlanadi. Birinchidan, u adabiyotimiz taraqqiyotiga yuksak badiiy asarlari bilan hissa qo'shgan bo'lsa, ikkinchidan, bu asarlarda faqat shoirning o'ziga xos bo'lgan ovoz, uslub, tafakkur tarzi barq urib turadi. U.Azim badiiy uslubining o'ziga xosligini biz unga tengdosh shoirlar - Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Azim Suyunlar bilan qiyoslash jarayonida aniq sezamiz. Agar Xurshid Davron va Azim Suyun she'riyatida tarixga murojaat etish orqali ijtimoiy dardni aytishga intilish, Shavkat Rahmonda lirik lirik kechinmani majoziy tasvirlar, ramzlar orqali berish kuchli bo'lsa, Usmon Azim badiiy tafakkurining shakllanishida aksar hollarda xalqona ohanglar yetakchilik qiladi. Buni biz shoirning "Baxshiyona ohanglar" turkumida va, umuman, deyarli butun ijodida yaqqol ko'rinadigan xalq, she'riyatiga xos tasvir va so'z o'yinlarida, xalq og'zaki ijodidagi qahramonlar taqdiriga bot-bot murojaat etishida, hatto nasriy asarlariga ham ko'chgan xalqona ruhda ko'ramiz.

Aksar iste'dodli shoirlarda bo'lganidek, Usmon Azim ham faqat o'zbek

xalq she'riyati an'analari doirasida cheklanib qolmagan. U o'ziga hamnafas o'zbek, rus, Kavkaz va Boltiqbo'yi shoirlarining, shuningdek, mumtoz jahon she'riyatining badiiy tajribalarini ham o'zlashtirgan shoir. Ammo bu badiiy tajribalar uning "ijodiy" dekchasida qaynab, uning shoirlik tabiati bilan uyg'unlashgandan keyingina o'z samarasini beradi. Shunday ijodiy jarayonning mahsuli bo'lgan asarlarida Usmon Azim badiiy tafakkurining o'ziga xos jilvalarini namoyish etib, XX asr o'zbek she'riyatining yetuk shoirlari darajasiga ko'tariladi.

Aslida xalq og'zaki ijodidan ta'sirlanmagan va uning boyliklaridan foydalanmagan ijodkorlar ko'p, deb bo'lmaydi. Lekin Usmon Azim uslubini belgilaydigan yetakchi xususiyat shundaki, u go'yo baxshi bo'lib kuylaydi, baxshining kuylash mahorati va uslubini o'ziga singdiradi, bu ruh beixtiyor asarlariga ko'chadi. Shoir she'riyatida xalq adabiy syujetlaridan foydalanish badiiy tamoyil darajasiga ko'tariladi. Jumladan, "Oq sharpa" dramatik dostonidagi tasvirlar shunday xususiyatga ega.

Shu bilan birga keyingi yillarda shoir ijodida ilohiyot bilan bog'liq mavzu paydo bo'lib, insonning moddiy, ma'naviy va ruhiy dunyodagi o'rni, uning boqiy va foniy hayot bilan aloqasiga oid kechinmalar tasviri kuchayib bormoqdaki, bu ham shoirning keng miqyosdagi izlanishda davom etayotganidan dalolatdir. Buni biz "Tazarru bog'lari" kitobiga kiritgan she'rlar misolida yorqin his etamiz.

Lirik asarlar asosida lirik "men" ning kechinmasi yotadi.

Quruq bayonchilik, voqelikni hissiz tasvirlash lirika uchun yotdir. Usmon Azimning muayyan ijtimoiy qimmatga molik she'riyati chuqur lirik kechinmalar asosiga qurilgani bilan ham qadrlidir. Bunday xususiyati bilan Usmon Azim she'riyati Shavkat Rahmon lirikasiga yaqin turadi. Shoirning so'nggi yillarda yaratgan she'rlarida ("Tazarru bog'lari" va b.) lirik kechinma tasvirining chuqurlashgani, insoniy tuyg'ularning ilohiy qadriyatlarni anglash darajasiga ko'tarilgani U.Azim ijodida ro'y berayotgan nafaqat badiiy, balki ruhiy yuksalishdan ham darak beradi. U.Azim bu she'rlarida lirik kechinmani tasvirlash san'atini mukammal egallagan shoir sifatida namoyon bo'ladi.

Ayni paytda uning she'rlari mantiqda hukmning kuchliligi, tashbehlarining jozibadorligi, fikrning ijtimoiy salmoqdorligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Usmon Azim she'riyatida zamon nafasi kuchli. U zamondoshlari dardini, tashvishlarini, orzu – istakla - rini yorqin ifodalay oladi. Va bu narsa uning ayniqsa an'anaviy barmoq vaznida yozgan she'rlarida bo'rtib ko'rinadi.

Usmon Azim so'zni teran his etuvchi, shu asosda she'ning estetik ta'sir kuchini oshira biluvchi shoirdir. Hamma gap shoirning so'zdan qanday foydalana bilishidadir. Usmon Azim sheriyatidagi o'ziga xosliklardan yana biri shundaki, shoir so'zning ko'pma'nolilik xususiyatidan foydalanishga, uning yashirin ramziy va falsafiy ranglarini topishga harakat qiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib, shoir badiiy tasvir vositalaridan foydalanganda, chunonchi, qofiya tizimida katta badiiy yutuqlarga erishadi. Usmon Azimning so'zdan foydalanish mahorati haqida so'z borganda, uning yana bir xususiyatini alohida ta'kidlash kerak: shoir faqat baxshiyona yo'lda yozilgan asarlarigagina emas, balki, umuman, butun lirikasiga xalqona ruhni singdirishga urinadi va bunga erishadi ham.

Bugungi o'zbek she'riyati taraqqiyotiga Usmon Azimning munosib hissa qo'shgan shubhasiz. Shoir, birinchidan, o'zining g'oyat rang - barang janrlardagi asarlari bilan adabiyotimizning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi, uni yangi badiiy tafakkur mevalari bilan boyitdi. Ikkinchidan, Usmon Azim she'riyati o'zbek xalqining milliy madaniyati, ruhiy olami, orzu - istaklari bilan uzviy bog'langan; binobarin, uning ijodi o'zbek adabiyotidagi, Cho'lpon yo Mirtemir she'riyatidek chinakam milliy va noyob hodisa.

Shunga ko'ra, Usmon Azim va unga avloddosh shoirlar ijodini yanada chuqur o'rganish hozirgi davr o'zbek adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Usmon Azim ijodi boshqa ilmiy tadqiqotlar uchun ham manba bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 39 б.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Т.: Ma’naviyat. 2013. –173 b.
3. Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар: –Т.: Ўзбекистон, 2001. – 334 б.
4. Каримов И.А. Илму фан мамлакатимиз тараққиётига хизмат қилсин. Асарлар тўплами. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – 225 б.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1999. – 252 б.
6. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин // Тафаккур. – Т.: 1998. - №2. – б. 2–16.

II. Ilmiy adabiyotlar:

1. Адабий турлар ва жанрлар (Тарихи ва назариясига оид) III жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 246 б.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.–Т.: Ўзбекистон, 2001. – 560 б.
3. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
4. Бугунги ўзбек адабиётининг баъзи муаммолари. 1-қисм. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2013. – 100 б.
5. Умунов Ҳ. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 2013. – 238 б.
6. Умунов Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 262 б.
7. Умунов Ҳ. Таҳлил чизгилари. – Т.: Мухаррир, 2013. 239 б.
8. Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Т.: Шарқ, 2007. – 120 б.

9. Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ, 1998.–240 б.
10. Мустақиллик даври адабиёти. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2006. – 287 б.
11. Ўзбек адабий танқиди [анталогия] тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов; таҳрир ҳайъати У.Норматов [ва бошқалар]. – Т.: Турон-Иқбол, 2011. – 544 б.
12. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: Fan, 2007. – 228 b.
13. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. –Т.: Фан, 2007. – 255 б.
14. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик: илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Т.: Шарқ, 2007. – 136 б.
15. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – 272 б.
16. Тил ва адабиёт муаммолари. II қисм. 7-чиқиши. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2015. – 290 б.
17. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: ЎАЖБНТ Маркази, 2003. – 361 б.
18. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди , 2006. – 548 б.
19. Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Т.: Янги аср авлоди , 2002. – 198 б.
20. Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Т.: Фан , 2007. – 196 б.

III. Бадиий адабиётлар:

1. Азимов У. Инсонни тушуниш. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 52 б.
2. Азимов У. Ҳолат. – Т.: Ёш гвардия, 1979. – 28 б.
3. Азимов У. Оқибат. – Т.: .: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 76 б.

4. Азимов У. Кўзгу: Шеърлар ва драматик достон. – Т.: .: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 126 б.
5. Азимов У. Дарс. – Т.: .: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 128 б.
6. Азимов У. Сурат парчалари: Шеърлар ва достон. – Т.: Ёш гвардия, 1986. – 104 б.
7. Азимов У. Иккинчи апрел. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – 96 б.
8. Азимов У. Бахшиёна: Драматик балладалар.. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – 80 б.
9. Азимов У. Уйғониш азоби: Шеърлар ва тарихий драматик қисса. – Т.: .: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 320 б.
10. Азимов У. Ғусса: Шеърлар ва достон. – Т.: Камалак, 1994. – 160 б.
11. Азимов У. Узун тун. – Т.: Ёзувчи, 1994. – 32 б.
12. Азимов У. Бор экан-у йўқ экан: (Эртас, шеърлар). – Т.: Чўлпон, 1995. – 32 б.
13. Азимов У. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – 432 б.
14. Азимов У. Куз. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 448 б.
15. Азимов У. Жоду. – Т.: Шарқ, 2003. – 336 б.
16. Азимов У. Соғинч. – Т.: Ўзб. Миллий энц. Дав.ил.наш, 2007.–200 б.
17. Азимов У. Юрак. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2009. – 308 б.
18. Азимов У. Фонус. – Т.: Шарқ, 2010. – 160 б.